


**ҮҚУВ АМАЛИЁТЛАРИ УЧУН ҮҚУВ-
МЕТОДИК МАЖМУАЛАР, ИННОВАЦИОН
ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ИШЛАБ
ЧИҚАРИШ ТАЪЛИМ УСТАСИНИНГ
ПОРТФОЛИОСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ҲАМДА
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

Компетенция (лат. *competo*- эришияпман, муносибман, лойиқман) - муайян шахснинг у ёки бу соҳадаги билимлар, орттирилган тажрибалари ва касбий қобилияти¹, деб изоҳланган. Шундан келиб чиқиб, маҳсус фан ўқитувчилари ва ишлаб чиқариш таълими усталарининг касбий компетенцияларини қуидагида таърифлаймиз:

КОМПЕТЕНЦИЯ

касбий-педагогик маҳорат, шахсий ва
умуммаданий, хусусиятларининг шаклланганлик
даражаси.

Ишлаб чиқариш таълими устасининг компетенцияси эса, қуидагиларни ўз ичига олади:



Касб-хунар колледжларида ўтказиладиган амалиёт турлари, мақсад ва вазифалари

Ўқув амалиёти мақсади

- ўқувчиларнинг назарий машғулотларда ўзлаштирган билимларини мустаҳкамлаш, дастлабки касбий кўникма ва малака ҳамда шахсий фазилатларни шакллантиришдан иборат.

Бу мақсадга қуидаги вазифаларни ечимини топиш орқали эришилади:

- билимларни бевосита амалий тавсифли топшириклар ечимини топишида қўллаш натижасида мустаҳкамлаш;
- тизимли машқларни бажариш йўли билан касбий кўникмаларини шакллантириш;
- технологик тавсифли муаммоларни ечишда шаклланган кўникмаларни такрорлаш орқали дастлабки касбий малакага айлантириш.

Ишлаб чиқариш амалиётимақсади

-ўқувчиларни таълим олиш жараёнида мутахассислиги бўйича эгаллаган касбий билим, кўникмаларини мустаҳкамлаш, такомиллаштириш ва кенгайтириш.

- ўқувчиларни тегишли касб ва ихтисосликлари бўйича муайян иш турлари мисолида касбий маҳоратларини такомиллаштириш.
- ишлаб чиқариш ишларини бажариш усулларини ўзлаштириш ва амалий тажрибаларини кенгайтириш ҳамда чуқурлаштириш.
- ўқувчиларни корхонадаги меҳнат жамоасининг ишлаб чиқариш ва ижтимоий хаётига жалб қилиш.

Диплом олди амалиётимақсади

- битирув малакавий иши мавзусида кўрсатилган аниқ объект бўйича диплом ишини бажариш учун лозим бўладиган барча техник, иқтисодий ва бошқа хил кўрсаткичлар ҳамда материалларни (меъёрий ҳужжатлар, адабиётлар, техник маълумотномалар) ўқувчи томонидан йиғиб олишга имкон яратиши.

- ўқувчи ўзининг битирув малакавий иши мавзуси асосида корхона, муассаса ва ташкилотларда амалиётчи сифатида фаолият юритиши.

Ўқув амалиётини ташкил этиш шакллари

Гурухли (жамоавий)

Кичик гурухларда

Якка тартибда (индивидуал)

Маълумки, амалий машғулотлар қўйидаги **жамоавий** (фронтал), **кичик гурух**(звено) ва **индивидуал** (якка тартибда) ўқитиш шаклларида олиб борилади. Бу шаклларда ўтказишнинг ўзига хос ижобий ҳамда салбий томонлари мавжуд.

Жамоавий шаклда амалий машғулотларни ўтказиш пайтида гурухдаги барча ўқувчилар бир мавзудаги ва мазмунан бир тур таълим фаолияти билан шуғулланади. Жамоавий шакл анча моддий ва методик таъминотни талаб қиласди. Масалан, қишлоқ ва сув хўжалиги соҳасида амалий машғулотларнинг асосий вазифаларидан бири бу ўқувчиларда механизмлар, машина-агрегатларни қисмларга ажратиш-йиғиш, иш режимига ростлаш каби операциялар (жараёнлар) бўйича пухта кўникмаларни шакллантиришдир. Ўқувчи ўз қўли билан муайян жараённи бажариши лозим, шундагина уларда керакли кўникмалар шаклланади. Мазкур талабларни бажариш учун иш жойи моддий ва методик жиҳатдан етарли даражада таъминланган бўлиши лозим. Масалан, “Трактор-автомобиллар тузилиши ва техник хизмат кўрсатиш” фани бўйича “Илашиш муфталари” мавзусидаги амалий машғулотларни ўтказганда ҳар 3-4 ўқувчи олдида комплект ҳолдаги илашиш муфта нусхалари бўлиши керак. Шунда ўқув гурухи учун камида 8-10 илашиш муфталар нусхалари талаб этилади. Бундан ташқари, методик кўрсатмалар сони ҳам шундан кам бўлмаслиги керак. Ҳозирги кунда бундай шароитларни ҳар бир мавзу бўйича етарли даражада таъминлаш қийинчилик туғдирмоқда.

Жамоавий шаклнинг ижобий томонларидан бири шундаки, амалий машғулотлар бевосита назарий машғулотлардан сўнг олиб борилади. Жамоавий шаклни “Чилангарлик ишлари” ўқув амалиётининг баъзи мавзуларини ўтганда қўллаш мумкин. Масалан, “Эговлаб текислаш” (опиловка) каби мавзуларида, бунда талаб этиладиган миқдордаги иш жойларини зарур жиҳозлар, ускуналар, мослама (верстак, тиски, эгов, заготовка)лар билан таъминлаш қийин эмас.

Юқоридагиларга асосланиб қўйидагиларни тавсия этиш мумкин: Агар ўқувчиларнинг ҳар бир иш жойлари моддий ва методик жиҳатдан талаб даражасида таъминланган бўлса, амалий машғулотларни жамоавий шаклда ўтказиш мумкин. Акс ҳолда ўқувчиларнинг кўпчилиги томошабинга айланади.

Кичик гурух(звено)нинг мазмуни шундан иборатки, амалий машғулотлар бир неча мавзулар бўйича бир вақт давомида ўтказилади ва ўқув материалининг бир қисми (блок)ни қамраб олади. Ўқувчилар гурухи кичик гурухларга бўлинади. Кичик гурухлардаги ўқувчилар таркиби кўпи билан 3-5 нафар ўқувчидан ошмаслиги тавсия этилади. Кичик гурухлар таркибида етакчиси бўлиши керак, етакчи ўзлаштириш даражаси яхши, талабчан ўқувчидан танланади. Ўтиладиган мавзулар ва кичик гурухлар сони бир-бирига teng бўлади. Шунга қарабиши жой (пост)лари ташкил қилинади. Умуман, иш ўринлар деб, муайян фаолиятни

самарали бажариш учун талаб қилинган жиҳозлар билан таъминланган жойга айтилади. Албатта, амалий машғулотни ўтказиш учун кичик гуруҳлар алмашиниш жадвали тузилади.

Кичик гуруҳларда ишлашнинг ижобий томони шундаки, ҳар бир иш жойини моддий ва методик жиҳатдан етарли даражада таъминлаш осонроқ. Бугунги кунда таълим муассасаларининг шароитини ҳисобга олган ҳолда амалиётларни кичик гуруҳларда ўтказиш энг қулай ва самаралидири.

Индивидуал ўқитиши-ўқувчига алоҳида ёндошган ҳолда таълим-тарбия бериш. Ўқитувчининг ўқувчига якка тартибда олиб борадиган ўқув машғулотлари шаклларидан бири бўлиб, ўқитувчининг ўқувчи билан олиб бориладиган алоҳида фаолият туридир. Ўқув жараёнини ташкил этиш индивидуал ёндашиш асосида ўқитиши йўллари, усуллари ва турли ўқув-услубий психологик-педагогик ҳамда ташкилий бошқарув тадбирлари орқали олиб борилади.

Ўқув-амалий машғулотларни ўтказишда гурух ўқувчиларининг берилган топшириқни бажариш ва қўникма ҳосил қилиш шакллари

Якка тартибда(индивидуал)

а)хар бир ўқувчи ўз иш жойида - муайян бир касб бўйича ўқув-амалий машғулот гурухли (жамоавий) шаклда ташкил этилганда, гурухнинг ҳар бир ўқувчиси мавзу бўйича амалий топшириқни белгиланган вақт давомида ўз иш жойида бажаради ва тегишли касбий қўникма шаклланади. “Чилангарлик ишлари”, “Пленер”, “Тиқув ва тикув трикотаж кийим бўлакларига ишлов бериш” ва бошқа шу каби ўқув амалиёти машғулотларини бунга мисол қилиб кўрсатиш мумкин.

б)кичик гурух таркибида ҳар бир ўқувчи навбат билан муайян бир касб бўйича ўқув-амалий машғулот кичик гурух таркибида ташкил этилганда, гурухнинг ҳар бир ўқувчиси мавзу бўйича амалий топшириқни белгиланган вақт давомида бир иш жойида навбат билан бажаради ва тегишли касбий қўникма шаклланади. “Электрогазпайвандлаш ишлари”, “Контактли пайвандлаш ишлари”, “Соч турмаклаш ва моделлаштириш ишлари”, “Қурилиш ва пардозлаш ишлари” ва бошқа шу каби ўқув амалиёти машғулотларини бунга мисол қилиб кўрсатиш мумкин.

Жуфтлиқда –бу шаклда ўқув-амалий машғулот ташкил этилганда, гурухнинг ҳар бир ўқувчиси мавзу бўйича амалий топшириқни белгиланган вақт давомида бир иш жойида жуфтлиқда бажаради ва тегишли касбий қўникма шаклланади. “Фармацевт ассистенти” касбининг “Дори турлари технологияси”, “Фармацевтик кимё” “Тиббий лаборант” касбида “Килиник лаборатория текшириш усуллари”, “Микробиология ва микробиологик текшириш усуллари” ва бошқа шу каби ўқув амалиёти машғулотларини бунга мисол қилиб кўрсатиш мумкин.

Кичик гурухларда

а) кичик гурух(ўқувчилар ҳамкорликда) -муайян бир касб бўйича ўқув-амалий машғулот кичик гурух ҳамкорликда ташкил этилганда, гурухнинг ҳар бир ўқувчиси мавзу бўйича амалий топшириқни белгиланган вақт давомида бир иш жойида ҳамкорлик билан бажаради ва тегишли касбий қўникма шаклланади. “Ғишт ва тош териш ишлари”, “Бетон ва арматура ишлари”, “Ошпазлак” ва бошқа шу каби ўқув амалиёти машғулотларини бунга мисол қилиб кўрсатиш мумкин.

б)кичик гурух(иш ўрнини жадвал асосида алмаштириш) -Кичик гурухларда амалий машғулотларни ўтказиши 2015 йил 20 августда тасдиқланган ўқув режада белгиланган 3430101 – “Кишлоқ хўжалиги машина ва жиҳозларига техник хизмат кўрсатиш механизми” касбининг “Трактор-автомобиллар тузилиши ва техник хизмат қўрсатиш” ўқув амалиёти мисолида кўриб чиқамиз. Мазкур ўқув режага асосан, ўқув амалиётининг ўқув юкламаси 120 соатга teng ва 3-курс Всеистри учун 60 соат ва VI семестри учун 60 соат миқдорида белгиланган.

Дастурий ўқув материални икки блокка бўламиз:

I блок. Двигатель тузилиши - 60 соат;

II блок. Трансмиссия, юриш қисми, бошқариш механизмлари ва қўшимча жиҳозлар - 60 соат.

I блок бўйича белгиланган 60 соатдан 6 соатини биринчи амалий машғулотга ажратамиз, бунда ўқув амалиётнинг мақсади ва вазифаси, ўтиш тартиби, хавфсизлик техникаси қоидалари, трактор ва автомобилларнинг умумий тузилиши каби мавзулар ўрганилади, кичик гурухлар таркиби эълон қилинади.

I блок бўйича қўйидаги 9 та иш жойни ташкил қиласиз:

1-иш жойи(Пост). Кривошип-шатун механизмнинг тузилиши ва техник хизмат кўрсатиш (кейинги ўринларда ТХК) – 6 соат;

2-иш жойи. Газ тақсимлаш механизмнинг тузилиши ва ТХК - 6 соат;

3-иш жойи. Карбюратор двигателларнинг таъминлаш тизими тузилиши ва ТХК - 6 соат;

4-иш жойи. Газ баллон ускунали двигателларнинг таъминлаш тизими тузилиши ва ТХК - 6 соат;

5-иш жойи. Дизель двигателларнинг таъминлаш тизими тузилиши ва ТХК - 6 соат;

6-иш жойи. Мойлаш ва совутиш тизимининг тузилиши ва ТХК - 6 соат;

7-иш жойи. Электр таъминлаш тизимининг тузилиши ва ТХК - 6 соат;

8-иш жойи. Двигателни юргизиб юбориш тизимининг тузилиши ва ТХК - 6 соат;

9-иш жойи. Ёруғлик ва ёруғлик сигнализация тизими, назорат-ўлчов асбобларининг тузилиши ва ТХК - 6 соат.

II блок бўйича 9 та ишжойни ташкил қиласиз:

II блок бўйича белгиланган 60 соатдан 6 соатини биринчи амалий машғулотга ажратамиз, бунда ўқув амалиётнинг мақсади ва вазифаси, ўтиш тартиби, хавфсизлик техникаси қоидалари, трактор ва автомобилларнинг умумий тузилиши каби мавзулар ўрганилади, кичик гурухлар таркиби эълон қилинади.

1-иш жойи (Пост). Трактор ва автомобилларнинг илашиш муфтасининг тузилиши ва ТХК - 6 соат;

2-иш жойи. Тракторлар узатмалар қутисининг тузилиши ва ТХК - 6 соат;

3-иш жойи. Автомобилларузатмалар қутисининг тузилиши ва ТХК - 6 соат;

4-иш жойи. Тракторлар орқа кўпригининг тузилиши ва ТХК - 6 соат;

5-иш жойи. Автомобиллар орқа кўпригининг тузилиши ва ТХК - 6 соат;

6-иш жойи. Трактор ва автомобиллар рул бошқарув тизимининг тузилиши ва ТХК - 6 соат;

7-иш жойи. Тракторлартормиз тизимининг тузилиши ва ТХК - 6 соат;

8-иш жойи. Автомобиллар тормиз тизимининг тузилиши ва ТХК - 6 соат;

9-иш жойи. Автомобиллар ғилдиракларини оғиш бурчаги (развал-схажденя) ва мувозанатини (болонсировка) ростлаш ва ТХК - 6 соат.

“Қишлоқ хўжалик машиналариҳамда чорвачилик фермалари механизmlарини тузилиши ва хизмат кўрсатиш” ўқув амалиёти ўқув юкламаси 180 соатга teng ва 3-курсл Vсеместри учун 120 соат ва VIсеместри учун 60 соат микдорида белгиланган.

Дастурий ўқув материалини учта блокка бўламиз:

I блок. Тупроқقا ишлов бериш,экиш ва ўтқазиш машиналари, ўғитлар солиш ва экинларни ҳимоя этиш учун машиналарнинг механизmlари ва аппаратлари- 60 соат.

II блок. Дон комбайнлари, дон тозалаш ва саралаш машиналари, пахта териш машиналарининг механизмлари ва ишчи органларини қисман қисмларга ажратиш, йифиш ва ростлаш, уларни ишга тайёрлаш- 60 соат.

III блок. Ем-хашак йифиштриш машиналарива чорвачилик фермалари механизмлари ишчи органларини қисман қисмларга ажратиш, йифиш ва ростлаш, уларни ишга тайёрлаш-60 соат.

I блок бўйича белгиланган 60 соатдан 6 соатини биринчи амалий машғулотга ажратамиз, бунда ўқув амалиётнинг мақсади ва вазифаси, ўтиш тартиби, мавзуга оид хавфсизлик техникаси қоидалари, қуйидаги қишлоқ хўжалик машиналарининг қисқача умумий тузилиши каби мавзулар ўрганилади ҳамда кичик гуруҳлар таркиби эълон қилинади.

I блок бўйича қуйидаги 9 та иш жойни ташкил қиласиз:

1-иш жойи.(Пост). Ўғитлаш машиналарининг тузилиши ва КТХК - 6 соат;

2-иш жойи. Тиркама плугларнинг тузилиши ва КТХК - 6 соат;

3-иш жойи. Осма плугларнинг тузилиши ва КТХК - 6 соат;

4-иш жойи. Чизель культиваторларнинг тузилиши ва КТХК - 6 соат;

5-иш жойи. Бороналар ва молаларнинг тузилиши ва КТХК - 6 соат;

6-иш жойи. Чигит экиш машиналарининг тузилиши ва КТХК - 6 соат;

7-иш жойи. Фалла уругини экиш ва ўтқазиш машиналарининг тузилиши ва КТХК- 6 соат;

8-иш жойи. Қатор ораларига ишлов бериш культиваторларининг тузилиши ва КТХК- 6 соат;

9-иш жойи. Ўсимликларни ҳимоялаш машиналарининг тузилиши ва КТХК -6 соат.

II блок бўйича белгиланган 60 соатдан 6 соатини биринчи амалий машғулотга ажратамиз, бунда ўқув амалиётнинг мақсади ва вазифаси, ўтиш тартиби, хавфсизлик техникаси қоидалари, қуйидаги қишлоқ хўжалик машиналарининг қисқача умумий тузилиши каби мавзулар ўрганилади ва кичик гуруҳлар таркиби эълон қилинади.

II блок бўйича қуйидаги 9 та иш жойни ташкил қиласиз:

1-иш жойи. (Пост). Фалла комбайнларининг умумий тузилиши ва КТХК - 6 соат;

2-иш жойи. Ўриш аппаратининг тузилиши ва КТХК- 6 соат;

3-иш жойи. Янчиш барабанларининг тузилиши ва КТХК- 6 соат;

4-иш жойи. Фалла комбайнларини ростлаш ишлари – бсоат;

5-иш жойи. Дон тозалаш ва саралаш машиналарининг тузилиши ва КТХК - 6 соат;

6-иш жойи. Пахта териш машинасининг умумий тузилиши ва КТХК -6 соат;

7-иш жойи. Териш аппаратининг тузилиши ва КТХК- 6 соат;

8-иш жойи. Пахта териш машинаси қабул камераларининг тузилиши ва КТХК- 6 соат;

9-иш жойи. Пахта териш машинасини ростлаш ишлари - 6 соат.

III блок бўйича белгиланган 60 соатдан 6 соатини биринчи амалий машғулотга ажратамиз, бунда ўқув амалиётнинг мақсади ва вазифаси, ўтиш тартиби, хавфсизлик техникаси қоидалари, қуйидаги қишлоқ хўжалик машиналарининг

қисқача умумий тузилиши каби мавзулар ўрганилади ва кичик гурухлар таркиби эълон қилинади.

ІІІ блок бўйича қуйидаги 9 та иш жойни ташкил қиласиз:

1-иш жойи. (Пост). Пичан ўриш машиналарининг тузилиши ва КТХК - 6 соат;

2-иш жойи. Пичан пресслаш машиналарининг тузилиши ва КТХК - 6 соат;

3-иш жойи. Озуқаларни кесиш ва дон майдалаш аппаратларининг тузилиши ва КТХК -6 соат;

4-иш жойи. Сомонга ишлов бериш усуллари ва жиҳозларининг тузилиши ва КТХК- 6 соат;

5-иш жойи. Озуқаларни тарқатиш машиналарининг тузилиши ва КТХК- 6 соат;

6-иш жойи. Автосуғоргичларнинг тузилиши ва КТХК - 6 соат;

7-иш жойи. Гўнг чиқариш машиналарининг тузилиши ва КТХК- 6 соат;

8-иш жойи. Сут соғишиш аппаратларининг тузилиши ва КТХК -6 соат;

9-иш жойи. Жун қирқишиш машинкаларининг тузилиши ва КТХК- 6 соат.

Ҳар бир иш жойининг ўқув материали ҳажми 6 соатга мўлжалланган бўлиши лозим. Қуйидаги шаклда кичик гурухлар алмашиниш жадвали тузилади:

Амалий машнүүлгөлтэл р т/р	Сана	Иш жойллари								
		1-иш жойи	2-иш жойи	3-иш жойи	4-иш жойи	5-иш жойи	6-иш жойи	7-иш жойи	8-иш жойи	9-иш жойи
1	15.11.2015	I кичик гурух	II кичик гурух	III кичик гурух	IV кичик гурух	V кичик гурух	VI кичик гурух	VII кичик гурух	VIII кичик гурух	IX кичик гурух
2	23.11.2015	IX кичик гурух	I кичик гурух	II кичик гурух	III кичик гурух	IV кичик гурух	V кичик гурух	VI кичик гурух	VII кичик гурух	VIII кичик гурух
3	30.11.2015	VIII кичик гурух	IX кичик гурух	I кичик гурух	II кичик гурух	III кичик гурух	IV кичик гурух	V кичик гурух	VI кичик гурух	VII кичик гурух
4	07.12.2015	VII кичик гурух	VIII кичик гурух	IX кичик гурух	I кичик гурух	II кичик гурух	III кичик гурух	IV кичик гурух	V кичик гурух	VI кичик гурух
5	14.12.2015	VI кичик гурух	VII кичик гурух	VIII кичик гурух	IX кичик гурух	I кичик гурух	II кичик гурух	III кичик гурух	IV кичик гурух	V кичик гурух
6	21.12.2015	V кичик гурух	VI кичик гурух	VII кичик гурух	VIII кичик гурух	IX кичик гурух	I кичик гурух	II кичик гурух	III кичик гурух	IV кичик гурух
7	28.12.2015	IV кичик гурух	V кичик гурух	VI кичик гурух	VII кичик гурух	VIII кичик гурух	IX кичик гурух	I кичик гурух	II кичик гурух	III кичик гурух
8	04.01.2016	III кичик гурух	IV кичик гурух	V кичик гурух	VI кичик гурух	VII кичик гурух	VIII кичик гурух	IX кичик гурух	I кичик гурух	II кичик гурух
9	11.01.2016	II кичик гурух	III кичик гурух	IV кичик гурух	V кичик гурух	VI кичик гурух	VII кичик гурух	VIII кичик гурух	IX кичик гурух	I кичик гурух

Иш жойларини қўйидаги усулда ташкил этиш мақсадга мувофиқ:

“Қишлоқ хўжалик машиналари” ўкув амалиёти устахонаси жихозлари

1.	Чилангарлик верстаги	10 дона	1-иш жойи	Ўғитлаш машиналарининг тузилиши ва КТХК
2.	Деталлар учун стелаж	8 дона	2-иш жойи	Тиркама плугларнинг тузилиши ва КТХК
3.	Техника хавфсизлиги бурчаги	1 дона	3-иш жойи	Осма плугларнинг тузилиши ва КТХК
4.	Хужжатлар учун шкаф	1 дона	4-иш жойи	Чизель культиваторларнинг тузилиши ва КТХК
5.	Устанинг иш жойи	1 дона	5-иш жойи	Бороналар ва молаларнинг тузилиши ва КТХК
6.	Аптечка	1 дона	6-иш жойи	Чигит экиш машиналарининг тузилиши ва КТХК
7.	Ёнғин хавфсизлиги шити	1 дона	7-иш жойи	Ғалла уруғини экиш ва ўтқазиш машиналарининг тузилиши ҳамда КТХК
8.	Асбоблар учун шкаф	1 дона	8-иш жойи	Қатор ораларига ишлов бериш культиваторларининг тузилиши ва КТХК
9.	Кийим илгич	1 дона	9-иш жойи	Ўсимликларни ҳимоялаш машиналарининг тузилиши ва КТХК



Ўқув-амалиёти ўтказиш даврини ўзгартириш

Тез бузиладиган озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлардан фойдаланиб ўтказиладиган ўқув амалиётлари (Ошпазлик, Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш ва шу каби бошқа касблар бўйича) ташкил этишда маҳсулотнинг мавсумийлигини инобатга олган ҳолда, касб-хунар коллежининг илмий педагогик кенгаш қарорига асосан ўқув-амалиёти ўтказиш даврини ўзгартиришга рухсат этилади.

Ишлаб чиқариш таълими устасининг лавозим вазифалари ва малака талаблари

Лавозим вазифалари

-ўқув амалий машғулотларни ва ишлаб чиқариш амалиётини режалаштиради ҳамда ўтказади, ўқув устахоналарига, маҳсус фан лабораториялари учун кўргазмали ўқув воситалар, жиҳозлар ва бошқа техника воситаларини, амалий машғулотлар учун керак бўлган материалларни тайёрлайди, корхоналар, муассасалар, ташкилотлар билан шартномалар тузишда қатнашади, таълим стандартлари талаблари асосида ўқувчиларни битирув малакали ишларни бажариш, битирув имтиҳонларини топширишга тайёрлайди, амалдаги меъёр талаблари асосида амалий топшириқ учун сарф бўладиган хом ашё материалларини хисоблайди, топшириқ мавзуларини танлайди, ўқув устахонасида иш ўринларини жиҳозлайди, техника хавсизлигига риоя этилишини таъминлайди.

Малака талаблари

-Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисидаги” қонуни, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” бошқа қонун хужжатларни, Таълим стандартларини Ўрта маҳсус, касб-хунар таълими марказининг қўлланма ва ахборот, **норматив материалларини**, буйруқларини, хорижий тиллардан бирининг бошланғич босқичини ва ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишни.

Билиши лозим

-мутахассисликнинг хусусиятидан келиб чиқиб, ўрта маҳсус, касб-хунар таълими тўғрисида маълумот, 3 йилдан кам бўлмаган амалий иш стажи.

Үқув амалиёти машғулотини ўтказиш



Изоҳ:(ЎМҚҲТ марказининг 2015 йил 8 сентябрдаги 283-сонли бўйргидаги йўриқнома сўзи қўлланма матнларда инструктаж деб юритилади)

Үқув машғулотига кириш

Ушбу босқичида Уста қуидагиларни бажариши керак бўлади:

- Үқувчиларни давоматини, ташқи кўринишини текшириш
- Техника хавфсизлиги қоидаларини эслатиш
- Ўтиладиган ўқув амалиётнинг режаси билан таништириш
- Баҳолаш мезони билан таништириш
- Үқувчиларни иш ўринларига тақсимлаш
- Йўриқли-технологик харита, асбоблар, материал ва хом ашёларни тарқатиш

Кириш инструктажи

➤ Асосий босқич кириш инструктажидан бошланади ва Уста уни қуидаги тартибда ўтказади:

- тезкор савол-жавоб, ақлий ҳужум орқали билимларни фаоллаштиради.
- ўқувчиларнинг ўқув материалини ўзлаштирганлик даражасини аниқлайди ва уларни ривожлантириш мақсадида янги мавзу баёнига ўтади.
- ўқув амалиёти машғулотининг янги мавзуси бўйича умумий маълумот беради ва иш жараёнини (топшириқнинг технологик моҳияти, уни бажариш усулларини, жиҳоз, асбоб-ускуна ва мосламалардан фойдаланиш тартибини) тушунтиради.
- ўқувчилар етарли даражада тушунмаган ҳолатларда ҳаракатларни қайтариб кўрсатади ва саволларга жавоб беради.

Кириш инструктажини ўтказиш учун тавсиялар

Кириш инструктажининг боришида 1-2 нафар ўқувчи Уста кўрсатиб берган иш усулларини такрорлаши самарали бўлади. Бу жараён ҳамиша гурӯхнинг фаоллигини оширади, ўқувчиларнинг эътиборли бўлишларини талаб этади.

Тушунтириш жараёнида ўқувчилар тайёрлаган деталлар ва буюмларни намуна сифатида кўрсатиш тавсия этилади, охирига етмаган, яъни тугалланмаган маҳсулот намунаси сифатида унинг ижобий ва салбий томонларини кўрсатиш керак.

Ўқув амалиёти машғулоти баъзи ҳолларда иш бажаришнинг бир неча усулларни ўз ичига олади. Бундай ҳолларда барча усулларни ўқувчилар эътиборига бирдан ҳавола этиш керак эмас. Агарда ҳаммаси баён қилиб берилса ўқувчилар, биринчидан, толиқиб қоладилар, иккинчидан, кўп нарсани эслаб қола олмайдилар ва кейин тескаридан тушунтириб беришни сўрайдилар. Шунинг учун кириш инструктажини қисмларга бўлиб, тушунтириш ва амалий машқлар билан қўшиб ўтказиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Амалиёт жараёнида тушунтириш билан биргаликда иш жараёнини бажариб кўрсатиш қуидагича амалга оширилади: олдин Уста ўргатилаётган ҳаракатларнинг вазифалари ва аҳамиятини тушунтириб, кейин уларни ўзи амалда бажариб кўрсатади. Иш жараёнини бажаришда аста-секин бажариш катта аҳамиятга эга.

Иш жараёнини аста-секин бажариб кўрсатиш асосий методик усуллардан бири бўлиб, улар ўқувчиларга иш ҳаракати қандай қисмлардан ташкил

топишни тушуниб олиш имконини беради. Иш жараёнини айрим элементларга бўлиб кўрсатиш ҳам ана шу мақсадда олиб борилади.

Уста бажариб кўрсатган иш ҳаракатларини ўқувчилар тақорлаши, бу ҳаракат кўнилмалари қанчалик аниқ ўзлаштирилганлигини, ўқувчилар олган билимлар даражасини, топшириқни муваффақиятли бажара олиш-олмаслигини текширишга ёрдам беради. Плакатда тасвирланган ёки видео тақдимот орқали иш усулини намойиш этиш ўқувчиларнинг билимларини мустаҳкамлашда қўшимча восита ҳисобланади.

Уста ҳаракатларни бажариб кўрсатиш вақтида ҳаракатнинг энг масъулиятли жиҳатларига ўқувчилар эътиборни жалб қилган ҳолда тушунтириб беради, ҳаракатнинг вазифаси ва аҳамиятини таъкидлайди. Уни олдинги ва кейинги ҳаракатлар билан боғлайди. Иш жараёни хақида ўқувчилар умумий тассавурга эга бўлганларига ишонч ҳосил қилгач, вазифани мустақил бажариш учун инструктаж беради.

Жорий инструктаж

Ўқувчилар топшириқларни мустақил бажариш жараёнида Уста жорий инструктаж беришни амалга ошириб боради ва қуидагиларни бажаради:

- ўқувчиларни иш жойларига тақсимлаб амалий иш юзасидан йўрикли-технологик харита ҳамда мустақил иш бажариш учун хомашё тарқатади ва кўрсатмалар беради.
- мустақил ишларни бажарилишини мақсадли айланиш вақтида назорат қилади ва иш жараёнида ўқувчилар йўл қўйган хатоларни кўрсатади.
- ўқувчи назорат-ўлчов асбобларидан тўғри фойдаланиши ва технологик жараёнга риоя этилишини кузатиш;

Жорий инструктажни ўтказиш вақтида ҳар бир ўқувчининг меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси, саноат санитарияси ва гигиенаси қоидаларини бажариши Устанинг доимий назоратида бўлиши керак.

Жорий инструктажни ўтказишнинг асосий мақсади бу - аниқ мақсад билан ҳар бир ўқувчини иш жойини назорат қилиб чиқишидир. Ана шундай мақсадли назорат қилишлар вақтида Уста биринчи бор ўқувчилар иш ўринларини қандай ташкил қилганлигини, назорат-ўлчов асбобларини тўғри сақлаши, ишлов берувчи асбоблар дастгоҳга қандай ўрнатилиши, дастгоҳларнинг созланишини, технологик жараёнга амал қилишини текширади. Иккинчи мақсадли назорат қилиш вақтида ўқувчилар у ёки бу иш усулини қандай бажаришини, ишлов берувчи асбоблардан тўғри фойдаланишини назорат қилади. Учинчи мақсадли назорат қилиш вақтида ўқувчи ўз-ўзини назорат қилиб назорат-ўлчов асбобларидан тўғри

фойдаланиши ва технологик жараёнга тўғри риоя этилишини кузатади. Тўртинчи ва бешинчи мақсадли назорат қилишда эса кундалик топшириқларнинг бажарилишини текширади, ишларни қабул қиласди ҳамда баҳолайди.

Ўқув амалиётида уста бажарилган ишларни қабул қилишга алоҳида эътибор бериши керак. Уста ўқувчилардан ишларини қабул қилиб олишда улардан ишни бажариш билан боғлиқ бўлган саволлар беради, бундан мақсад ўқувчилар ишни қанчалик онгли равишда бажарганлигини аниқлашдир.

Буюмларнинг сифатини текшириш вақтида ўқувчиларнинг йўл қўйган ҳатто энг кичик камчиликларини ҳам кўрсатиб ўтиш зарур бўлади, буни сабаби кичик камчиликлар орқали келиб чиқиши мумкин бўлган носозликларни тушунишига ёрдам беради ва у ўз йўлида ўқувчиларни масъулиятли бўлишга ундейди.

Якуний инструктаж

Ўқувчининг бир кунги ўқув машғулотида бажарган ишларини таҳлил қилиш ва зарур ҳолларда инструктаж бериш якуний инструктажнинг асосини ташкил этади. Ўқувчининг хатоларини таҳлил қиласди, сабабларини тушунтиради, тузатиш учун йўл-йўриқ кўрсатади ва шунга ўхшаш хатолар такрорланмаслиги учун кўрсатмалар беради. Иш ўринлари тартибга келтирилади.

Якуний инструктажда бажариладиган ишлар:

- машғулот жараёнида ўқувчлар йўл қўйган хатоларни сабабларини тушунтиради ва ушбу хатолар такрорланмаслиги учун кўрсатмалар беради.
- баҳолаш мезони асосида ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражаларини баҳолайди.
- машғулот тугагандан сўнг иш жойларини тартибга келтиришини назорат қиласди. Тайёрланган маҳсулотни қабул қиласди.

ЯКУНИЙ БОСҚИЧ

Уста машғулот натижаларини таҳлил қилиб, гуруҳ ва айрим ўқувчилар қандай ютуқларга эришганликлари у ёки бу ўқувчининг ишида хатоликлар аниқланганлигини, машғулотларнинг боришида қандай носозликларга, меҳнат ва технология интизомнинг бузилишига йул қўйилганлиги, уларга нималар сабаб бўлганлиги, бундан кейин юқорида кўрсатилиб ўтилган камчиликларга йўл қўймаслик учун қандай чоралар кўриш зарурлигини таъкидлаб ўтади.

Ўқув амалиёти давомида бутун гуруҳ амалга оширган ишлар ва ўқувчилар кунлик топшириқларни қандай бажарганлигини маълум қилиб,

баҳолаш мезонига асосланган ҳолда ишлар баҳоланади ва нима сабабдан айнан шу баҳо қўйилганини ўқувчиларга тушунтирилади.

Якуний босқичнинг охирида кейинги машғулот ҳакида қисқача маълумот бериб, уйга вазифа берилиб, уни бажариш учун қўрсатмалар беради.

Уйга берилган топшириқлар ўтилган мавзуни такори бўлмасдан кейинги мавзуга тайёрланиб келишдан иборат бўлади. Кейинги мавзуга тайёрланишда маҳсулот тайёрлаш ва йиғиш операцияларини ҳамда технологик жараённинг схемасини тузиш, бажариладиган ишларни осонлаштириш учун мосламалар конструкцияларини ишлаб чиқиш каби топшириқлар ўқувчиларнинг техник тафаккурини ривожлантиради, рационализаторлик ҳамда ихтирочилик кобилиятларини намоён қилиш учун кенг имкониятлар очиб беради.

Якуний босқичдабажариладиган ишлар:

- ўқувчиларнинг амалий машғулот бўйича олган баҳоларини эълон қиласди.
- келгуси касбий фаолиятларида амалиётда бажарган ишларининг аҳамияти ва муҳимлилигига ўқувчилар эътиборини қаратади.
- келгуси машғулот мавзуси билан таништириб, уйга вазифа беради

Ўқув амалиёти машғулотидан сўнг бажариладиган ишлар

- ўқув устахонасини тартибга келтириш мақсадида навбатчи ўқувчилар ишини ташкил қилиш.
- гурӯҳ журналини тўлдириш.
- амалиётда қатнашмаган ўқувчиларга ажратилган хомашёни ва ўқувчилар тайёрлаган маҳсулотни омборга топшириш.
- мослама ва асбобларнинг техник ҳолатини текшириш, зарур ҳолатларда таъмирлаш ва коллеж асбоб-ускуналар сақлаш ва тарқатиш омборхонасига топшириш.
- жиҳоз ва дастгоҳларнинг техник ҳолатини кўздан кечириш.
- устахонани устахона мудири ёки бош устага топшириш.

Ўқув амалиёти машғулотида ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражаларини баҳолаш мезони

Ўқув амалиёти машғулотида ўқувчилар назарий билимлар билан бир қаторда касбий - амалий қўнималарни ўзлаштиради. Машғулот вақтида ўқувчининг барча фаолиятини бир вақтнинг ўзида бажарилган ишлар сифати, олган назарий билимлари, вақт меъёрларига риоя қилиш, иш ва иш жойини ташкил қилиш, ишлов бериш ва назорат-ўлчов асбобларидан фойдаланиш, хавфсизлик техникаси қоидаларига риоя қилиши баҳоланади. Ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражаларини “Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 13 майдаги 204-сонли ва 2004 йил 24 июндаги “Ўзбекистон Республикаси

Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази фаолиятини такомиллаштириш түғрисида”ги 293-сонли қарорларига асосан академик лицейлар ва қасб-хунар колледжлари ўқувчиларининг билим савияси, кўнишка ва малақаларини назорат қилишнинг рейтинг тизими асосида баҳолаш мезонини ишлаб чиқдиқ. Баҳолаш мезони кўрсаткичлари З-жадвалда келтирилган:

Баҳолар беш баллик тизимда қўйилади

5 – “аъло”

4 – “яхши”

3 – “қониқарли”

2 – “қониқарсиз”

**Ўқув амалиёти машғулотида ўқувчиларнинг ўзлаштириш
даражаларини баҳолаш мезони**

т/р	Мезонлар	Баҳо
Назарий билим (берилгансаволларгажавоббериши)		
1	Саволларгатўлиқжавоб бериш, мисоллар, далиллар келтириш	5
2	Саволларгатўлиқжавоббера олмаслиги	4
3	Саволларгақисманжавоббериш	3
4	Саволларгаумуманжавоббера олмаслик	2
Бажарилган ишлар сифати (техник талабларга риоя қилинганлик)		
5	Белгиланган техник талабларга тўлиқ риоя қилганлиги	5
6	Техник талабларга риоя қилганлиги	4
7	Ишлаб чиқариш таълими устасининг кўрсатмаларидан кейинтўғриланган. Бажарилган ишлар техник талаблар доирасида	3
8	Асосий техник талабларга риоя қилинмаган (тўғрилаб бўлмайдиган яроқсиз маҳсулот)	2
Вақт меъёрларига риоя қилиш		
9	Ишларни ўз вақтидан олдин бажариш	5
10	Ишларни ўз вақтида бажариш	4
11	Ишларни вақтида бажариш	3
12	Ишларни вақтида бажаролмаганлиги	2
Иш ва иш жойини ташкил қилиш		
13	- иш ва иш жойини тўғри ташкил этиш; - ишлаб чиқариш операцияларини амалга оширишда мақбул иш усулларини қўллаш ва турли ишларни хатосиз бажариш; - ишни мустакил режалаштириш ва бажариш	5
14	Ишлаб чиқариш таълими устасининг кўмаги билан: - иш ва иш жойини тўғри ташкил этиш; - ишлаб чиқариш операцияларини амалга оширишда мақбул иш усулларини қўллаш ва турли ишларни хатосиз бажариш; - ишни мустакил режалаштириш ва бажариш	4
15	- иш ёки иш жойини ташкил этиш, ишлаб чиқариш	3

	операцияларини амалга оширишда мақбул иш усулларини қўллаш ва турли ишларни бажаришда баъзи хатоликларга йўл қўйганлиги; - ишни етарли даражада мустақил режалаштира олмаганлиги ва бажара олмаслиги	
16	- иш ва иш жойини ташкил этишда мунтазам равишда хатоларга йўл қўйиш ва асосий иш усулларини етарли даражада ўзлаштира олмаслиги - ишни мустақил режалаштира олмаганлиги ва бажаролмаслиги - хавфсизлик техникаси қоидаларига риоя қилмаганлиги	2
Ишлов бериш ва назорат-ўлчов асбобларидан фойдаланиш		
17	- асбобларни мустақил тўғри танлаш ва улардан мақсадли фойдаланиш; - асбобларни ишлатиш, созлаш ва сақлаш қоидаларига тўлиқ риоя қилиш; -асбобларнинг конструкцияси ва ишлаш принципини билиши	5
18	Ишлаб чиқариш таълими устасининг кўмаги билан: - асбобларни тўғри танлаш ва улардан мақсадли фойдаланиш; - асбобларни ишлатиш, созлаш ва сақлаш қоидаларига риоя қилиш; - асбобларнинг конструкцияси ва ишлаш принципини билиши	4
19	- асбобларни тўғри танлаш ва мақсадли фойдаланишда хатоликларга йўл қўйиши; -асбобларни ишлатиш, созлаш ва сақлаш қоидаларига риоя қилишда хатоликларга йўл қўйиши; -асбобларнинг конструкцияси ва ишлаш принципини қисман билиши	3
20	- асбобларни тўғри танлай олмаслиги ва мақсадли фойдаланмаслиги; - асбобларни ишлатиш, созлаш ва сақлаш қоидаларига риоя қилмаганлиги; - асбобларнинг конструкцияси ва ишлаш принципини билмаслиги	2
Хавфсизлик техникаси қоидаларига риоя қилиш		
21	Хавфсизлик техникаси қоидаларини мукаммал билиши ва уларга тўлиқ риоя қилиш	5
22	Хавфсизлик техникаси қоидаларини билиши ва уларга тўлиқ риоя қилиш	4
23	Хавфсизлик техникаси қоидаларига риоя қилишда хатоликларга йўл қўйиши	3
24	Хавфсизлик техникаси қоидаларига риоя қилмаслиги	2

Изоҳ: ҳар бир ўқувчи ўқув амалиёти машғулотида бажарган ишлари учун баҳоланиши зарур.

Ўқув амалиёти машғулотининг ўқитиш технологияси

Мавзу (номи).....

Ўқув амалиёти машғулотининг ўқитиш технологияси модели

Вақт: 6 соат	Ўқувчилар сони: ____нафар
Ўқувмашгулотинингшакливатури	Ўқув амалиёти
Ўқув машгулоти режаси\ тузилиши	1. ... 2. ... 3. ...
Ўқув машгулотининг мақсади: ... тўғрисида қўникма ва малакаларни шакллантириш(<i>Машгулот мавзуси мазмунидан келиб чиқиб мақсад қўйилади</i>)	
Педагогик вазифалар: ... билан таништириш; ... тушунтириш, кўрсатиши; ... инструктаж бериш; ... йўл кўйилган хатоларни кўрсатиши	Ўқув фаолияти натижалари: ... кўрсатади; ... таснифлайди; ... машқларни мустақил бажаради; ... хатолари устида ишлайди
Ўқитии усуллари	Тушунтириш, хикоя, кўрсатиши, намойиш, сухбат, кўрсатмалар бериш, амалий машқ(<i>Машгулот мавзусидан келиб чиқиб</i>)
Ўқув фаолиятини ташкил этиши шакли	Оммавий, жамоавий, гурухли, якка тартибда
Ўқитии воситалари	Керакли жиҳоз ва асбоб, кўргазмали қурол, проектор, кодоскоп, стенд, плакатлар, слайд, йўрикли-технологик хариталар, компьютер курилмаси
Ўқитии шароити	Жиҳозланганустахона
Қайта алоқанинг усул ва воситалари	Сўров, ким ошди савдоси (аукцион), тезкор сўров, қора қути

Ўқув амалиёти машғулотининг технологик харитаси машғулотнинг босқичлари ва уларнинг машғулот давомидаги вақтини белгилайди. **Ўқув амалиёти машғулоти технологик харитасининг вазифаси:** дарс жараёнда ишлаб чиқариш таълими устаси ва ўқувчилар фаолияти кетма-кетлигини

кўрсатиш ҳамда мазмунини ёритиш. Машғулот давомида ишлаб чиқариш таълими устаси фойдаланиладиган барча ўқитиши воситалари, назорат воситалари, бериладиган топшириклар иловасини кўрсатиб ўтади.

Ўқув амалиёти машғулотининг технологик харитаси

Машғулот босқичлари ва вақти	Фаолият мазмуни	
	ўқитувчи	ўқувчи
1-bosқич. Ўқувмашғу лотига киришдақиқа	<p>Ташкилий қисм:</p> <ol style="list-style-type: none"> Ўқувчиларнинг давоматини текширади. Ўқувчиларнинг машғулотга тайёргарлигини назорат қиласди. Мақсад ва вазифанинг белгиланиши: Амалий машғулот номи, режаси, мақсад ва кутилаётган натижалар билан таниширади Амалий машғулотнинг баҳолаш мезонлари билан таниширади. Хавфсизлик техникаси қоидаларига амал қилишни эслатади 	<p>Машғулотга тайёргарлик кўради</p> <p>Амалиётга хавфсизлик техникаси, санитария ва гигиена талабларига риоя қилган ҳолда маҳсус кийимда келади. Хавфсизлик техникаси журналига имзо қўяди.</p> <p>Тинглайди</p>
2-bosқич. Асосий bosқичдақиқ a	<p>Кириш инструктажи (..... дақ.)</p> <p>Ўқувчиларбилимини фаоллаштириш:</p> <ol style="list-style-type: none"> Тезкор савол-жавоб, ақлий ҳужум ўтказади. Ўқувчиларнинг ўқув материалини ўзлаштирганлик даражасини аниқлаб ва уларни ривожлантириш мақсадида янги мавзу баёнига ўтади. <p>Янги мавзу баёни:</p> <ol style="list-style-type: none"> Ўқув амалиёти машғулоти мавзуси бўйича умумий маълумот беради, иш жараёнини тушунтиради <p>Жорий инструктаж (..... дақ.).</p> <p>Янги мавзу бўйича амалий машқ бажариш:</p> <ol style="list-style-type: none"> Ўқувчиларни иш жойларига тақсимлаб амалий иш юзасидан йўрикли-технологик харита (...-илова) ҳамда мустақил иш бажариш учун хомашё тарқатади ва кўрсатмалар беради Мустақил ишларни бажарилишини мақсадли айланиш вақтида назорат қиласди ва иш жараёнинда ўқувчилар йўл қўйган хатоларни кўрсатади <p>Якуний инструктаж (..... дақ.):</p> <ol style="list-style-type: none"> Баҳолаш мезони асосида ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражаларини 	<p>Саволларга жавоб беради</p> <p>Тинглайди, чизади, ёзиб олади</p> <p>Ўз иш жойларини эгаллайди, машғулот раҳбари кўрсатмалари ва йўрикли-технологик харитага риоя қилган ҳолда ишни бажаради.</p> <p>Йўл қўйган хатоларини тўғрилайди.</p> <p>Фойдаланилган жиҳозларни машғулот раҳбарига топширади. Иш жойини тартибга келтиради</p>

	баҳолайди. 2. Машғулот тугагандан сўнг иш жойларини тартибга келтиришини назорат қиласди. Тайёрланган маҳсулотни қабул қиласди	
3-босқич. Яқуний босқич ...дақиқа	Яқунлаш: 1. Ўқувчиларнинг амалий машғулот бўйича олган баҳоларини эълон қиласди (...-илова); 2. Келгуси касбий фаолиятларида амалиётда бажарган ишларининг аҳамияти ва муҳимлилигига ўқувчилар эътиборини қаратади; 3. Келгуси машғулот мавзуси билан таништириб, уйга вазифа беради (...-илова).	Тинглайди Топшириқни ёзиб олади

Асосий концептуал ёндашув ва мақсаддан келиб чиқсан ҳолда ҳамда ўқитиш технологияларини лойиҳалаштиришда ўқитиш методлари, шакллари, воситалари ҳамда қайтар алоқанинг усул ва воситалари танлаб олинган, яъни:

Ўқитишнинг методлари ва техникалари: кичик-маъруза, ҳикоя, тушунтириш, кўрсатма бериш, намойиш, кўрсатиш, видеометод, китоб билан ишлаш, ИНСЕРТ, машқ, сұхбат, баҳс, ақлий хужум, пинборд, муаммоли метод, кейс-стади, лойиҳа, лаборатория ва амалий ишлаш методлари.

Ўқув фаолиятни ташкил этиши шакллари: жамоавий, оммавий, гурӯхли ва якка тартибда.

Ўқитиши воситалари:

- Ўқитишининг техник воситалари – компьютер, ёзув тахтаси, флипчарт, проектор, слайдлар, ўқув-компьютер тизими.
- Ёрдамчи ўқитиши воситалари – график ташкил этувчилар, чизмалар, намуналар, гербарий, реактивлар, лаборатория ускуналари ва ҳ.к.
- Ўқув - дидактик материаллар – ўқув топшириқлар ва уни бажариш бўйича кўрсатмалар, дарсликлар.

Қайтар алоқа усуллари ва воситалари: кузатиш, тезкор сўров, савол-жавоб, ўқув топшириқ, жорий, оралиқ ва якунловчи назорат тестлари натижаларини таҳлили асосида педагогик диагностикаси.

Йўриқли-технологик харитага қўйидаги талаблар қўйилади:

1. Шакли ва тузилиши Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими марказининг 2015 йил 8 сентябрдаги “Ўқув-методик мажмуаларни яратишни такомиллаштириш тўғрисида”ги 283-сонли буйруги талабларига мос келиши (1-жадвал).
2. Ўқув амалиёти ишчи дастурига мазмунан мос келиши.
3. Мақсад тўғри қўйилганлиги.
4. Мазмунан ва мантиқан тугалланган бўлиши.
5. Тузилмаси оддий ва тушунарли бўлиши.
6. Реал ўқув жараёни ва муайян касб ҳамда иктинослик бўйича мутахассис меҳнат фаолияти элементларини ўзида ифодалаши.
7. Ахборотлар кўламининг зарур ва етарлилик даражасида бўлиши.
8. Ахборотлар аниқ, қисқа, тушунарли ва етарлича образли бўлиши.
9. График қисмида эскиз (чизма, расм, схема)лар бажариладиган ишлар мазмуни ва кетма-кетлигини ёритиши.
10. Ўқув амалиёти шароитида қўлланиш имконияти мавжудлиги.
11. Меҳнат операциялари даражасини секин аста ошиб бориши.

1-жадвал

Йўриқли-технологик харита

Касб-коди ва номи: _____

Ўқув амалиёти номи: _____

Амалий машғулот: _____

Мақсад: _____

№	Бажариладиган ишлар мазмуни	Мосламалар, асбоблар ва хом ашёлар	Эскизлар (чизмалар, расмлар)	Бажариш тартиби
1				
2				
3				

Бунда қуидагиларни ҳисобга олиш лозим:

- ўқув амалиётининг мақсади;
- коллежнинг моддий-техника базаси;
- ўқувчиларнинг ўзлаштирган билим ва кўникмалари;
- ўқув амалиётини ўтказиш шакли;
- бажариладиган ишларнинг мазмунини яратиш;
- иш ўрнини хавфсизлик техникаси талабларига асосан ташкил қилиш.

Ишлаб чиқариш таълими устаси ўқув машғулотга тайёрланиш жараёнида топширикни ўзи бажариб қўрастади. Зарур бўлган ҳолда режадаги ишларда тегишли ўзгартиришлар киритади.


ЙЎРИҚЛИ-ТЕХНОЛОГИК ХАРИТА

Касб коди ва номи: 3540303 -Нефть ва газ қудуқларини бурғулаш техники

Амалиёт номи: Чилангарлик ишлари.






Мавзу № 20: Болға тайёрлаш




Амалий машғулотнинг мақсади: ўқувчиларни “Чилангарлик ишлари” ўқув амалиётида ўзлаштирган билимлари текшириш ҳамда кўникма ва малакаларини мустаҳкамлаш ва ривожлантириш



№	Бажарадиган ишлармазмуни	Мосламалар, асблолар ва хомашёлар	Бажариладиган амалий иш кўриниши Эскизлар	бажарадиган ишлар кетма-кетлиги
	Топшириқ билан танишиш			1. Болға чизмасини кўриб чиқиш 2. Бажариладиган ишлар мазмуни ва бажарish тартиби билан тўлиқ танишиб чиқиш

				3. Ишни бажариш юзасидан тушунмаган жойлар бўйича саволлар бериш
1	Иш жойини ташкил килиш	1. Чилангарли к верстаги, 2. Гира 3. Металл гулача 25x25x114 4. Эговлар 5. Пармалар 6. Штангенциркуль 7. Керна 8. Андаза		1. Ишлатиладиг ан асбоблар созлиги текширилади. 2. Оёқ остига кўйиладиган таглик (панжара) дан ёки кўтариладиган гирави дастгоҳлардан фойдаланиб гира ишловчининг бўйига мослаб ўрнатилади
2	Заготовканиё нтараф- ларига ишловб ериш	1. Чилангарли к Верстаги, 2. Гира 3. Металл гулача 25x25x114 4. Эговлар 5. Штангенциркуль		Заготовка гирада керакли ўлчамда қирқиб олингандан кейин ён тарафларига кетмакет эгов билан ишлов берилади
3	Болғани узунлик ўлчамини келтириш	1. Чилангарли к Верстаги, 2. Гира 3. Металл гулача 25x25x114 4. Эговлар 5. Штангенциркуль		Заготовкани торецлари эговлаб узунлиги 112 мм қилинади
4	Болға муҳрасини эговлаш	1. Чилангарли к Верстаги, 2. Гира 3. Металл гулача 25x25x112 4. Эговлар 5. Штангенциркуль		Болға муҳраси эговланади.

5	Болға түмшүгини киялигини реж алаш	1. Чилангарли к верстаги, 2. Гира 3. Металл гулача 25x25x112 4. Андоза 6. Чизгич		Болға түмшүгини режалаш учун андозани заготовкага юзасига қўйиб чизгич ёрдамида режаланади
6	Берилган ўлча мгача түмшүгини эговлаш	1. Чилангарли к верстаги, 2. Гира 3. Металл гулача 25x25x112 4. Эговлар 5. Штангенциркуль		Заготовка гирагамаҳкамланган ҳолда дағал эговёрдамида түмшүғи эговланади
7	Дастаучунтеш икни режалаш	1. Чилангарли к верстаги, 2. Гира 3. Металл гулача 25x25x112 5. Штангенциркуль 6. Чизгич 7. Керна		Болға дастаси учун овал тешик режаландиватешкл армаркази тўғирланади
8	Тешикни пармалаш	1. Пармалаш дастгохи 2. d=11.5мм парма		1. Заготовка гирага ўрнатилиб махкамланади 2. Режаланган (кернланган) жойдан тешиклар пармаланади
9	Овалшаклинин келтириш	1. Чилангарли к верстаги, 2. Гира 3. Металл гулача 25x25x112 4. Эговлар 5. Штангенциркуль		Тешиклар думалоква яrim думалокэговларёрга мида ўлчамларга келтириб эговланади

1 0	Кирраларниэг овлабтозалаш (фаскаларни олиш)	1. Чилангарли к верстаги, 2. Гира 3. Металл гулача 25x25x112 4. Эговлар 5. Штангенциркуль		Болғаникирралариэг овланиб силлиқланади (фаска олиш)
1 1	Махсулотни текшириш	Штангенциркуль	 	Тайёрланган болғани ишлаб чиқариш таълими устаси баҳолайди

ЙЎРИҚЛИ-ТЕХНОЛОГИК ХАРИТА

Касб коди ва номи: 3522701 –Пайванд конструкциялар ишлаб чиқариш(техник механизги



Ўқув амалиёти номи: Кўлда электр ёли пайвандлаш ишлари.

Амалий машғулот №: Пастки ҳолатда валикларни эритиб қоплаш.

Амалий машғулотнин мақсади: Ўқувчиларга пастки ҳолатда валикларни эритиб қоплашни ўргатиш орқали уларда ёй ёкиш, ёй узунлигини тутиб туриш ва электродни уч йўналиш бўйича ҳаракатлантириш кўникмаларини шакллантириш.

№	Бажариладигани шлармазмунни	Мосламалар асбоблар ва хомашёлар	Эскизлар,чизмалар,расмлар	Бажариш тартиби
1	2	3	4	5
1	Топшириқ билантанишиш			<ol style="list-style-type: none"> 1. Бажариладигани шлармазм унвакетмакетлиги билантанишиш. 2. Ишни бажаришюзасиданту шинмаганжойлар бўйичасаволлар берниш
1	Металл пластинани валиклар эритиб қоплаш учун тайёрлаш	1.Металл чўтка 2.Металл пластина (200x100x4мм)		Металл пластина инг валиклар эритиб қопланадиган юзасидаги ёғ, занглар метал чўтка ёрдамида тозаланади
2	Пайвандлаш аппаратини ташқи кўздан кечириш	1.Электр пайвандлаш аппарати ТС-ДС 300А		Пайвандлаш аппаратининг корпусидаги маҳсус ерга улаш учун мўлжалланган белгили болт орқали ерга уланганлиги, тармоқка уловчи сим, кабеллар, электрод тутгич ва масса кабеллари пухта биринтирилганлиги, кабеллар изоляцияси бутунлиги, ток кучи ва кучланишини созловчи дасталар ҳамда ток кучини кўрсатувчи табло ойнаси бутунлиги кўздан кечирилади

3	Пайвандлаш постини жиҳозланишини кўздан кечириш	1. Пайвандлашпости ва жиҳозлари		Пайвандлаш постидаги сўрувчи курилманинг созлиги, ёритилганлиги, буровчи винтли стул созлиги, асбоб анжомларга мўлжалланган стол ишлаш учун қулай жойга ўрнатилганлиги ва унда керакли асбоб-анжомларнинг борлиги, оёқ остида резина гиламча борлиги, электрод тутгичнинг ҳолати, масса кабелининг қисқичи ҳолати, никобнинг ҳимоя ойнаси бутунлиги ва зичловчи қистиргич борлиги, кўздан кечирилади								
4	Электрод тутгичга электрод ўрнатиш	1. Электрод тутгич. 2. Электрод (Ø 42 Ø 3 мм)		Электродни электрод тутгичга ўрнатиш, бунда электрод тутгичга пухта қистирилишига эътибор бериш лозим								
5	Пайвандлаш тўғрилагичини тармоқка улаш ва ток кучини ростлаш	1. Пайвандлаш тўғрилагичи ТС-ДС 300А		<p>Ток кучи қўйидаги формуладан аниқланади: $I = K \cdot D_{ел}$ Коэффициент $K = 25-60 \text{ А}/\text{мм}.$ бўлиб</p> <table border="1"> <thead> <tr> <th>$D_{ел}, \text{мм}$</th> <th>1-2</th> <th>3-4</th> <th>5-6</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>$K, \text{А}/\text{мм}$</td> <td>25-30</td> <td>30-45</td> <td>45-60</td> </tr> </tbody> </table> <p>қўйидаги жадвалдан олинади: $I = K \cdot D_{ел} = 40 \cdot 3 = 120 \text{ А}$</p>	$D_{ел}, \text{мм}$	1-2	3-4	5-6	$K, \text{А}/\text{мм}$	25-30	30-45	45-60
$D_{ел}, \text{мм}$	1-2	3-4	5-6									
$K, \text{А}/\text{мм}$	25-30	30-45	45-60									

6	Металл пластинага “Чапдан ўнгга” қарата валиклар эритиб қоплаш	1.Металл пластина (200x100x4мм) 2.Электрод ($\varnothing 42 \text{ mm}$)	 	Электродни чапдан ўнгга қарата ҳаракатлантириб валик қүядилар, бунда электрод қиялигини вертикалга нисбатан валик йўналиши томонга $15-20^0$ қиялатиб ҳаракатлантирилади. Эътибор бериш керак: 1.Қопланган валик энига; (эни қисқаради) 2.Қопланган валик баландлигига. (баландлиги ортади) 3.Валик қуийшдаги қулайликлар ва қийинчиликларга. 4.Электродни уч йўналиш бўйича ҳаракатига
7	Металл пластинага “Ўнгдан чапга” қарата валиклар эритиб қоплаш	1. Металл пластина (200x100x4мм) 2.Электрод ($\varnothing 42 \text{ mm}$)	 	Электродни ўнгдан чапга қарата ҳаракатлантириб валик қуийш, бунда электрод қиялигини вертикалга нисбатан валик йўналишига қарама-қарши томонга $15-20^0$ қиялатиб ҳаракатлантириш. Эътибор бериш керак: 1.Қопланган валик энига; (эни ортади, қавариқлиги пасаяди) 2.Қопланган валик баландлигига. (қавариқлик камаяди) 3.Валик қуийшдаги қулайликлар ва қийинчиликларга
8	Эритиб қопланган валикни шлақдан тозалаш	1. Валик эритиб қопланган метал пластина 2.Шлак ажратувчи болға		Эритиб қопланган валик шлақдан шлак кўчирувчи болға ёрдамида тозаланади

9	Металл чүтка билан чокни тозалаш	1. Валик эритиб қопланган метал пластина 2.Металл чүтка		Эритиб қопланган валик металл чүтка ёрдамида ялтиратиб тозаланади
10	Бажарилган ишни текшириш ва баҳолаш учун топшириш. Иш жойини тартибга келтириш	1.Валик эритиб қопланган металл пластина		Бажарилган ишни ишлаб чиқариш таълим устасига топширади. Иш ўрнини тартибга келтириш

Изоҳ: Пайвандлашдан олдин электрод қуритилган бўлиши керак.

ЙЎРИҚЛИ-ТЕХНОЛОГИК ХАРИТА

Касб коди ва номи: 3340202 - Курилиш—пардозлаш ишлари устаси

Ўқув амалиёти номи: Куруқ усулда қурилиш—пардозлаш ишлари

Амалий машғулот №: Бино ва иншоотлар ички конструкциялари ва пойдеворини гипсокартон қопламалар билан монтаж қилиш ишлари

Амалий машғулотнинг мақсади: Ўқувчиларга мавжуд замонавий асбоб-ускуналар билан ишлаш жараённида қуруқ усулда профил ёрдамида синч шаклида девор тайёрлаш ва ушбу синчли деворга гипсокартонни маҳкамлаш усуллари билан биритириш асосида яхлит деворчани тайёрлаш кўникмаларини шакллантириш.

№	Бажарадиганишлармазмун и	Мосламалар , асбоблар ва хомашёлар	Бажариладиган амалий иш кўриниши Эскизлар	Бажарадиган ишлар кетма-кетлиги
	Топшириқ билан танишиш			Бажариладиган ишлар мазмунни ва кетма-кетлиги билан танишиш. Иши и бажариш юзасидан тушунмаган жойлар бўйича саволлар бериш
Ўлчов ишларини олиб бориш				
1.	Ўлчов ишларини олиб бориш	Шовин, бичув столи, бурама метр, қалам, шайтон	 	Монтаж пойдеворлар белгиланган полда, шифтда ва асосий деворда Лазерли сатҳ ўлчагич ёки режа чизғич туширгич (шовин) мослама ёрдамида белгиланади
Профилни кесиш ва ўрнатиш				
2.	Профилни кесиш	Профилни кесиш учун маҳсус қайчи		Профиленни маҳсус қайчи ёрдамида керакли ўлчамда кесиб олинади

3.	Профилни мустаҳкамлаш	Перфоратор, электр дрел, дюбел, бурама мих, болға, профил туташтиргич	  	Электр дрель ёрдамида бурама мих маҳкамланади. Изоҳ: Фиштли, бетон деворларга перфоратор ёрдамида профиль тешилиб олинади ва узунлиги 35 мм, диаметри 5 мм гача бўлган бурама мих маҳкамланади
4.	Профилга тасма ёпишириш	Тасма		Конструкциянинг товуш изоляциясини яхшилаш мақсадида маҳсус зичловчи тасма ёпиширилади
5.	Профилни ўрнатиш	Метростат устун профил		Устун профил метростат ёрдамида ўлчаб олинади, сўнг йўналтирувчи профилга устун профил ўрнатилади
Гипсокартон кесиши ва юзага қоплаш				
6.	Гипсокартон қопламаларни кесиши	Метр, пичоқ, ранда	 	Белгиланган ўлчамда гипсокартон қопламаси маҳсус пичноқ ёрдамида кесилади ва ранда ёрдамида текисланади

7.	Юзани қоплаш	Электр дрел, бурама мих, гипсокартон қопламаси		Гипсокартон қопламаси синчга 1 мм ўлчамда чўқтирилиб қотирилади

ЙЎРИҚЛИ-ТЕХНОЛОГИК ХАРИТА




Касб коди ва номи: 3320908 – Кенг ассортиментдаги кийимлар модельер-конструкторори

Ўқув амалиёт номи: Кийимнинг айрим бўлакларига ишлов бериш (120соат)

Амалий машғулот №: Қўл чокларининг тикилиши (6 соат)

Амалий машғулотнинг мақсади: Қўл чокларини тикилишини ўргатиши.

№	Бажариладиган ишлар мазмуни	Мосламалар, асбоблар ва хомашёлар	Эскизлар,чизмалар,расмлар	Бажариш тартиби
1	2	3	4	5
1.	Газламага бўлаклари белгилаб жойлаштириш	Бичув столи, чизгич, бўр, қайчи Бир ўқувчи учун газлама сарфи: чит газлама 0,7x0,8м , ип 1та фалтак		Бўлакларни чизгич ёрдамида чизиб бичиш. Бунда бўлакларнинг танда ипи ёъналиши тушиши керак. Шунингдек, бўлакларнинг симметриклигига аҳамият бериш керак. Бўлакларни бўрлаб бичилади
2.	Тўғри сирма қавиқ	Чит газлама 16x13см 2та бўлак, ип, игна, ангишовна, қайчи, бўр, чизгич		Қавиқ узунлиги кўклаганда Lк 2-3 см солқили Lк 1-2 см сирмалашда лк 3-5 см, букиб кўклашда Lк 1,5-3 см.
3.	Кия сирма қавиқ	Чит газлама 16x13см 2та бўлак, ип, игна, ангишовна, қайчи, бўр, чизгич		Солқисиз сирмалашда 3-5 см, солқили 1,5-3 см бўлиб кўклашда 1,5-3 см
4.	Ёрма қавиқ	Чит газлама 16x13см 2та бўлак, ип, игна, ангишовна, қайчи, бўр, чизгич		Игна санчилган жойдан газлама қирқимигача бўлган масофа 05,-0,7 см Lк к 0,5-0,7 см.
5.	Кия бириттирма қавиқ	Чит газлама 16x13см 2та бўлак, ип, игна, ангишовна, қайчи, бўр, чизгич		Қавиқ узунлиги 0,3-0,5 см қавиқ устки газлама қирқимидан 0,3-0,5 см нари туширилади. 1 смда қовиқлар сони 2-3 та

				бўлади Lқ қ 0,3-0,5
1	2	3	4	5
6.	Яширин бириктирма қавиқ	Чит газлама 16x13см 2та бўлак, ип, игна, ангишовна, қайчи, бўр, чизгич		1 см да 2-3 қавиқ
7.	Ироқисимон бириктирма қавиқ	Чит газлама 16x13см 2та бўлак, ип, игна, ангишовна, қайчи, бўр, чизгич		Қавиқ йириклиги 0,5-0,7 см, қавиқ қатор кенглиги эса 0,3-0,7 см бўлади.
8.	Солқи (нусхалама) қавиқ	Чит газлама 16x13см 2та бўлак, ип, игна, ангишовна, қайчи, бўр, чизгич		Солқи ипнинг узунлиги 0,5-0,7 см, қавиқ узунлиги 1,0-1,5 см
9.	Тепчима қавиқ	Чит газлама 16x13см 2та бўлак, ип, игна, ангишовна, қайчи, бўр, чизгич		Ип номери-40 –80, қавиқ йириклиги 0.5-0,7 см қавиқ орасидаги масофа 0,4-0,7 см.
10.	Тўр қавиқ	Чит газлама 16x13см 2та бўлак, ип, игна, ангишовна, қайчи, бўр, чизгич		Қавиқ узунлиги 0,2-0,4 см

ЙЎРИҚЛИ-ТЕХНОЛОГИК ХАРИТА


<ul style="list-style-type: none"> - Texnika, yong'in xavfsizligi va mehnat xavfsizligi qoidalari bo'yicha yo'riqnomalar berish; - Ish joyida xavfsiz ishlash xarakatlari va usullari o'rgatish; - Yong'inga qarshi inventarlarni turlari va joylar bilan tanishtirish; - Elektr xavfsizligi qoidalarga rioya qilishni o'rgatish; 	<ul style="list-style-type: none"> - Texnika, yong'in xavfsizligi va mehnat xavfsizligi qoidalari bo'yicha yo'riqnomalarni biladilar; - Ish joyida xavfsiz ishlash xarakatlari va usullarini ayta oladilar; - Yong'inga qarshi inventarlarni turlari va joylarni gapira oladilar ; - Elektr xavfsizligi qoidalarga rioya qila oladilar;
<i>O'qitish metodlari</i>	Blits-so'rov, klaster,yo'riqnomalar berish, amaliy ish, ko'rsatish.
<i>O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari</i>	Ommaviy, individual
<i>O'qitish vositalari</i>	O'quv uslubiy material, Sh.K va atrof qurulmalari, videoproektor va ko'rgazmali qurollar
<i>O'qitish sharoiti</i>	O'quv amaliyoti ustaxonasi
<i>Qaytar aloqaning usul va vositalari</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. « Chilangarlik ustaxonasi bilan tanishuv texnika va yong'n xavfsizligi.» mavzusi bo'yicha o'quv ishlab chiqarish mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchisi	Ta'lim oluvchilar
Mavzuga kirish (20 daq)	<p>Mavzuni e'lon qiladi. Mavzu bo'yicha vazifalarini tushuntiradi. Bajariladigan ishlar ketma-ketligi bilan tanishtiradi.</p> <p>Texnika, yong'in xavfsizligi va mehnat xavfsizligi qoidalari bo'yicha yo'riqnomalar beradi.</p> <p>O'quvchilarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova)</p> <p>1.3. Mavzuning ahamiyati ustida to`xtalib o'tadi.</p> <p>1.4. Mavzu bo'yicha bilimlarini rivojlantirish maqsadida o'quvchilar bilan tezkor- so'rov, orqali bilimlarni faollashtiradi. (2-ilova)</p>	Eshitadi, kuzatadi, savollarga javob beradi.
Asosiy bosqich (210 daq)	<p>I bosqich. Kirish yo'l-yo'riqnomasi(30 daq.)</p> <p>1.1. Mavzuga taaluqli asosiy tushunchalar aytildi.Mavzuning maqsad va vazifalarining asosiy nazariy holatlarini slaydlarni tartibida namoyish va sharhlash orqali tushuntiradi 1.2.O'qituvchi kompyuterini yoqadi va videoproektor yordamida prezentatsiya asosida ish joyida texnika xavfsizlik qoidalarni, va o'rgatuvchi mavzuga doir video lavhalarni o'quvchilarga ko'rsatadi hamda asosiy elementlar bilan tanishtirilib, ularning vazifalari aytildi. Klaster yordamida shaxsiy himoya vositalari tushuntiriladi (3- ilova).</p>	Usta bajarayotgan ishni diqqat bilan kuzatadi.
	<p>II bosqich. Joriy yo'l- yo'riqnomma (150 daq.)</p> <p>2.1 Har bir o'quvchiga texnologik yo'riqnomma tarqatiladi. (4-ilova)</p> <p>2.2. O'quvchilarga tarqatilgan yoriqnomma tushuntiriladi.</p> <p>2.3. Har bir o'quvchi olgan yo'riqnomasi bo'yicha bajarayotgan ishi ketma-ketligi kuzatib boriladi.</p> <p>2.4.Kamchilikka yo'l qo'ygan o'quvchilarga savol javob asosida kamchiliklari to`ldirilib boriladi, o'quv topshirig'I beriladi. (5-ilova)</p>	<p>Yo'riqnomaga diqqat qiladilar.</p> <p>Har bir o'quvchi o'z ishlarini tahlil qiladilar.</p> <p>Yo'l qo'yilgan xatoliklar va kamchiliklarga diqqat qiladilar.</p>
	<p>III bosqich. Yakuniy yo'l-yo'riqnomma (30 daq.)</p> <p>Har bir o'quvchi bajargan ishlarni qabul qiladi va yakun yasaydi. Bajarilgan ishlardagi yutuq va kamchiliklarni ko'rsatadi.</p>	<p>Hisobot yozadilar</p> <p>Topshiradilar.</p> <p>Kamchiliklarni to'g'rilaydilar</p>
Yakuniy bosqich (10 daq)	Baholarni e'lon qiladi. Uyga vaziaf va uni bajarish uchun yo'l-yo'riqlar beradi. (6-ilova)	<p>Baholarni eshitadi.</p> <p>Uy vazifasini daftarga yozib oladi.</p>

BAHOLASH KO'RSATKICHLARI VA MEZONLARI

Mavzu: Ustaxonasi bilan tanishuv texnika va yong'n xavfsizligi. Ajratilgan vaqt – 6 soat. Sanasi -	Baholash varaqasi																			
	O'quvchilarning ismi sharifi:																			
Baholash mezonlari																				
I. Ish o'rnini tashkil qilinishi:																				
- asbob va uskunalar to'g'ri tanlanganmi.(5 ball)																				
-texnika xavfsizligi qoidalariiga rioya qilinganmi. (5 ball)																				
II. Amaliy ko'nikmalar																				
1.Texnika, yong'in xavfsizligi va mehnat xavfsizligi qoidalari bo'yicha yo'riqnomalar.(5 ball)																				
2. Ish joyida xavfsiz ishlash xarakatlari va usullari (5 ball)																				
3. Yong'inga qarshi inventarlarni turlari va joylar bilan tanishish. (5 ball)																				
4. Elektr xavfsizligi qoidalarga rioya qilish.(5 ball)																				
JAMI:																				
O'rtacha bahosi																				

Izoh:


1) Topshiriqning bajarilishi besh balli tizim asosida baholanadi. Bunda ushbu topshiriqning tarkibiga kiruvchi barcha faoliyat turlari inobatga olinib, ularning har biriga baho berilishi shart.

Topshiriq bo'yicha o'quvchining yakuniy bahosi esa har bir faoliyat turi bo'yicha olingan baholarning jami topilib, ushbu faoliyat turlarining soniga bo'lindi. 2) Qoniqarsiz baho olgan o'quvchilar ma'muriyat ko'rsatgan muddatda mashqlarni qayta topshiradi.

Tezkor-Savol O'z-o'zini nazorat qilish savol va topshiriqlari:

1. Qanday shaxsiy ximoya vositalarini bilasiz ?
2. Qanday yong'n xavfsizligi vositalarini bilasiz ?
3. Sprinkler va drencherli sistemalar ?
4. Elektr qurilmalarni ishlatalishda qanday elektr xavfsizlik qoidalarini bilasiz ?
5. Texnologik uskunalarni ishlatalishda qanday texnika xavfsizk instruksiyalarni bilasiz?.

Texnologik zonada ishlataladigan shaxsiy himoya vositalari.






YO'RIQNOMALI TEXNOLOGIK XARITA

O'quv amaliyoti nomi: Chilangarlik ishlari.

Amaliy mashg'ulot №1: Chilangarlik ustaxonasi bilan tanishuv texnika va yong'n xavfsizligi.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Ish joyida xavfsiz ishlash xarakatlarini o'rGANISH va texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar haqida amaliy ko'nikmalarini hosil qilish.

Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Rasm ko'rinishi (chizma, eskiz)	O'quvchilar bajaradigan ishlar ketma-ketligi	Asbob- uskuna, moslama va xom ashyolar
1	Xavfsizlik texnikasi		Chilangarlik ishlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi qoidalarigi rioya qilish, asbob-uskunalaridan va dastgohlardan foydalanish qoidalarini tushuntirish. Shovqinga qarshi moslamalar.	Elektr jixozlari, ko'chma elektr asbob-uskunalar
2	Yong'in xavfsizligi		Chilangarlik ishlarini bajarishda yong'in xavfsizligi qoidalarini tushuntirish, Yong'inning oldini olish ishlari, o't o'chirish vositalari bilin tanishtirish	O't o'chirish vositalari
3	Elektr xavfsizligi		Chilangarlik ishlarini bajarishda foydalaniadigan elektr jihozlar qanday kuchlanishlarda ishlashini o'rgatish. Elektr moslamalarini erga ulash usullarini tushuntirish. Qo'llar nam bo'lgan holda uskunalarini elektr manbaiga ulash yoki ajratish taqiqlanadi.	Elektr jihozlari, ko'chma elektr asbob-uskunalar

Mavzuni mustahkamlash:

O'quv topshirig'i.

- 1.Ishdan oldin ish joyini ko'zdan kechiring;
- 2.Ishlab chiqarish ta'limi ustasidan maxsus kiyimlarni qabul qilib oling;
- 3.Ish jarayonida fikringiz qilinayotgan ishda bo'lzin ;
4. Ishdan so'ng asbob-uskunalarini ustaga topshiring va ish joyining tozaligiga e'tibor bering.

Uyga vazifa: Mavzu bo'yicha ta'limiy o'yin tayyorlab kelish.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH VA MUVOFIQLASHTIRISH
BUXORO VILOYAT HUDUDIY BOSHQARMASI

BUXORO SHAHAR KASB-HUNAR MAKTABI



CHILANGARLIK ISHI O'QUV AMALIYOTIDAN

MAVZULAR TO'PLAMI

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi:

S.Abdullayev



2021-yil

1-MAVZU: Chilangularlik ishiga kirish. Mehnat muxofazasi.

Reja:

1. Ishlab chiqarishda va o‘quv ustaxonalarida sanitariya holatlari. Sanitariya me’yorlari va qoidalari
2. Elektr to‘kidan himoyalanish tadbirlari
3. Yong‘in xavfsizligi. Yong‘inning sabablari va oldini olish chora-tadbirlar


Har qanday texnologik jarayonni to‘g‘ri va muvafaqqiyatli bajarish uchun ish o‘rnini ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etish katta ahamiyatga ega. Ish o‘rn-iishlab chiqarish sexi, avtokorxonasi yoki avtoservisning bir qismini tashkil qilib, bir yoki bir necha ishchilarga biriktiriladi. Kasb-hunar kollejlari esa laboratoriya yoki o‘quv amaliyoti kollej ustaxonasida tashkil etilib guruh guruhchalarga bo‘lib o‘tiladi. Guruh va guruhchalarga sardor tayinlanib u ish o‘rniga javobgar bo‘ladi.



- ish o‘rniga o‘rnatilgan dastgohning balandligi o‘quvchi uchun qulay, ish bajarishni ta’minalash;
- asbob-uskunalar joylashishi qo‘l yetadigan darajada qulay bo‘lishi;
- ish qurollari ma’lum tartibda va bir joyda turishi, toza, soz holatda bo‘lishi;
- ish o‘rnida ortiqcha narsalar bo‘lmasligi;
- ishlayotgan predmet bilan ishchining ko‘zi orasidagi masofa taxminan 450-550 mm bo‘lishiga harakat qilish zarur.
- asbob turadigan shkaf va dastgohlarda tortma qutilar bo‘lishi;

Ishchi kiyim (jomakor) havo – bug‘ o‘tkazadigan, ishchini tashqi muhitning noqulay ta’siridan asrashi, xarakatga halaqit bermasligi kerak. Ish oldidan yengining tugmalari qadalgan, kiyimning etaklari yoyilib ketmasligi, sochni bosh kiyim ostiga joylash zarur. Oyoq kiyim oyoqdan chiqib ketmaydigan, sirpanmaydigan va oyoqni ifloslanish hamda jarohatlanishdan saqlay oladigan bo‘lish kerak.

shla
b
chiq
arish
da
va
o'qu
v
usta



Ishchi kiyim (jomakor).

xonalarida sanitariya holatlari. Sanitariya me'yorlari va qoidalari

Mehnat gigiyenasi ishlab chiqarish muhitini va mehnat jarayonini kishi organizmiga ta'sirini o'rghanadi va ularning sanitariya-gigiyena holatlarini yaxshilash bo'yicha tavsiyanomalarni ishlab chiqadi. Bularning hammasi ishchilarning sog'lig'iga va ish qobiliyatini saqlab qolishga yordam beradi.

Ishlab chiqarish sanitariyasi - ishlab chiqarish korxonalari hududlarining holatini yaxshi saqlash, sanitariya-obodonlashtirish, ishlab chiqarish binolarini va xonalarini, sanitariya-texnik qurilmalari (havo almashish, istish, yoritish), sanitariya-maishiy xonalar qurilmalari, shaxsiy himoyalanish vositalaridan foydlanish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi zaharlanishlarni hamda kasalliklarini oldini olish, xizmatchilar sog'ligini muhofaza qilish, shuningdek mehnatni ilmiy tashkil qilish va ishlab chiqarish estetikasi bilan bog'liq bo'lgan gigiyena chora-tadbirlarini ishlab chiqish masalalarini hal qiladi.

Shaxsiy gigiyena tushunchasi - bu badanni toza tutish, ishlaganda shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, o'zi ishlaydigan joyni ozoda tutish va boshqalar. Shaxsiy gigiyena qoidalarini bajarish faqat individual emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ham bog'liq bo'ladi. Agar har bir odam shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilmasa u o'z oilasida va ishlaydigan jamoada yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarishdagi zararli omillar va ularning inson organizmiga ta'siri

Ishlab chiqarishning zararli omillar odamning ish qobiliyatiga ta'siri har xil bo'ladi va ularni ruxsat etilgan me'yordan ortishi kishining ish qobiliyatini birdan o'zgartirib yuborishi, shuningdek kasallikning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Issiqlik – barcha jismlarni tashkil etgan mikrozarralarning tartibsiz harakati. Ruxsat etilgan me'yordan havoning issiqligi yuqori bo'lsa, odam toliqadi, yurak-tomir kasalligiga chalinishi mumkin. Bosh og'rig'i paydo bo'lishi, issiq urishi mumkin. Agar havoning harorati me'yordan past bo'lsa, issiqliknki yo'qotish ko'payadi. Havo namligi ham ma'lum darajada kishining ishlash qobiliyatiga ta'sir qiladi. Havoning nisbiy namligi 75 % dan oshmasligi va 30% dan kam bo'lmasligi kerak.

Gazlar va bug'lar qattiq va suyuq kristall holatdagi moddalar zaharli preparatlardan, yonilg'ilardan va moylash materiallaridan ajralib chiqishi mumkin. Gaz va bug' inson organizmini zaharlabgina qolmay, balki gaz portlash va yong'inga ham olib kelishi mumkin.

Chang. Zaharli bo'lmagan mineral yoki organik moddalar tomoq, ko'z, havo yo'li va o'pkani kasallanishiga olib kelishi mumkin. Zaharli moddadan iborat changlar organizmning zaharlanishiga olib keladi. Kishi ishlayotgan joydagи havoning zaharlangan chang 10 mg / m³ dan, kvarts changi esa 2 mg / m³ dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Titplash – kishi organizmiga uzoq vaqt davomida ta’sir qiladigan bo‘lsa, yurak qon-tomir tizimini kasallanishiga, qon tarkibining o‘zgarishiga, gipertoniyaga, hushdan ketishga sabab bo‘lishi mumkin.

Yoritilganlik. Ishlab chiqarish xonalari va ish joylarining yaxshi yoritilganligi ko‘z toliqishini kamaytiradi, nafas olishni yaxshilaydi, jarohat sabablarini yo‘qotadi. Ish joylari tabiiy va sun’iy yorug‘lik bilan yoritiladi. Joyidan qo‘zg‘almaydigan mashinalarda ish bajarilganda ularni yoritishda soya va yorug‘lik nurlarni odam ko‘ziga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushishidan saqlash kerak.


Elektr xavfsizligi. Elektr to‘kidan jarohatlanish sabablari va uning oldini olish

Elektr to‘ki urushiga kishining elektr zanjiriga ulanib qolishi sabab bo‘ladi. Elektr to‘kiga ulanishning ikki xil shakli bor: ikkita sim orasida ulanish va sim bilan yer orasidagi ulanish. Ikkala holda ham jarohatlanish darajasi kuchlanish kattaligiga, pol va poyabzalning himoyalanish holatiga, ishlab chiqarish xonasidagi muhit sharoitiga, simlarga tekkan paytda kishining holatiga bog‘liq. Tanaga to‘k urishi eng xavfli hisoblanadi, chunki to‘k urganda insonning yuragi, o‘pkasi, miyasiga ta’sir qilishi mumkin. Odamning elektr to‘kidan jarohatlanishining boshqa hollariga quyidagilar sabab bo‘ladi:

1. Elektr qurilmalarini o‘rnatish va ulardan foydalanishda xavfsizlik texnikasining qoidalarini buzilishi;
2. Elektr jihozlarining kuchlanish ostida qolgan to‘k o‘tkazadigan metall qismlarga tegib ketishi;
3. Xavfsiz mehnat usullarini bilmaslik, jarohatlanishga olib keladi: Elektr to‘kidan jarohatlanish sabablari aniqlash va jarohatlanishga sabab bo‘lgan elektr jihozlarini mufassal ko‘zdan kechirish lozim. Jihoz va elektr tarmog‘i to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, qurilmaning kuchlanish kattaligi, chastotasi, quvvati, simlarning markasi, tarmoqning hamda ta’minalash manbaining yerga nisbatan himoyalash (izolatsiyalash) tartibi, asboblarning inson jarohatlanishidan oldingi va keyingi ko‘rsatkichi, jarohatlangan kishining kiyimi, poyabzalining holatini (quruq, nam zaxligi) va havo haroratini aniqlab olish kerak.

Elektr to‘kidan himoyalanish tadbirlari


Himoyalanish simlari yerga ulanadi. Elektr qurilmalarining to‘k, yurmaydigan qismlarini yerga ulab qo‘yish himoyalovchi yerga ulash deyiladi. To‘kli simlar mashina qismlariga tasodifan tegib ketganda yoki uzilib uning ustiga tushganda, himoyalovchi (izolatsiya) qismi ishdan chiqib cho‘lg‘am simlari yalang‘ochlanib korpusga tegib qolganda, shuningdek, mashinaning to‘k yurmaydigan qismlari kuchlanish ostida qolganda to‘k uradi.



1-chizma. Ishchi va himoyalovchini yerga ulash.

a) himoyalangan neytral bilan 1000V gacha tarmog‘iga; б) yerga ulangan neytrali bilan 1000V dan yuqori tarmog‘iga.

1 - himoyalovchi ulagich; 2-yerga ulanadigan uskuna; 3- himoyalovchi ulagich; R₃ va R₄ – himoyalovchi va ishchi yerga ulashning qarshiliklari; A, V, S – elektr simlari.



Nol simga ulash chizmasi.

1-to'k iste'molchisi; 2-iste'molchi himoya apparatlari; R_k -himoya nol simini yerga qayta ulash qarshiligi; R_0 – podstansiyadagi nol simini yerga ulagichning qarshiligi; Iq-qisqa ulanish to'ki; A, V, S, D – simlar

Elektrdan himoyalanish vositalari

Elektrdan himoyalovchi vositalari, insonlarni elektr qurilmalarga xizmat ko'rsatish vaqtida himoyalashga mo'ljallangan. Ularni himoyalovchi (asosiy qo'shimcha) to'suvchi va himoyalovchilarga bo'linadi. Himoyalovchi vositalar insonni to'k o'tkazuvchi qismlardan himoyalash uchun xizmat qiladi. Asosiy vositalar elektr qurilmalarning to'liq ishchi kuchlanishini ko'taradi, ular bilan kuchlanishda bo'lgan to'k o'tkazuvchi qismlarga tegishi ruxsat etiladi. Yordamchi vositalar o'ziga xizmat ko'rsatuvchi xavfsizlikni ta'minlab berolmaydi, shuning uchun ularni asosiy vositalar bilan birga qo'llash lozim. Kuchlanishi 1000 V dan yuqori bo'lgan elektr qurilmalarning asosiy himoyalovchi vositalariga: shtangalar va elektr o'lchov qisqichi, kuchlanish ko'rsatkichlari olinadigan balandliklar, narvonlar, maydonchalar kiradi. 1000 V kuchlanishgacha ega bo'lgan elektr qurilmalarining asosiy himoyalovchi vositalariga esa yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari; dielektrik qo'lqoplar va yonlari himoyalangan asboblar kiradi. Kuchlanishi 1000 V dan ortiq bo'lgan elektr qurilmalar uning asosiy himoyalovchi vositalariga: qo'shimcha izolatsiyalovchi tagliklar kiradi. 1000 V gacha bo'lgan elektr qurilmalarining asosiy himoya vositalariga: dielektrik kalishlar, gilamchalar, tagliklar kiradi.

To'suvchi himoyalovchi vositalar - (qo'lqoplar, to'suvchi kataklar, nakladkalar, vaqtinchalik ko'chma yerga ulanishlar qisqartiruvchi simlar) to'k uzatuvchi qismlarni vaqtincha to'sishga mo'ljallangan.

Yordamchi himoyalovchi vositalar – (saqlovchi belkuraklar, xavfsizlik arqonlari, temir tutqichlar, himoyalovchi kuzoynak, qo'lqop, movut) balandlikdan yiqilmaslik uchun elektr to'kining yorug'lik, issiqlik, kimyoviy va mexanik ta'siridan saqlaydigan maxsus kiyimlar kiradi.

Yong'in xavfsizligi. Yong'inning sabablari va oldini olish chora-tadbirlar

Xo'jalikda yong'inni keltirib chiqaradigan sabablar: isitish pechlarini qurish yoki ishlatish qoidalarining buzilishi, ishlab chiqarishda yoki xonada olovni ehtiyyotsizlik bilan ishlatish, kerosinda ishlaydigan yoritish va qizdirish asboblarini noto'g'ri o'rnatish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish, yashin yoki statik elektr zaradlar, mashinalar va ishlab chiqarish jihozlarining nosozligi hamda ularni ishlatish qoidalariga rioya qilmaslik (ichki yonuv dvigatellaridan chiqadigan uchqunlar, elektr qurilmalaridagi qisqa tutashuvar yoki yerga ulanib qolishi, elektr simlarida yuqori yuklanishni ortib ketishi, tutashuvar nosoz bo'lgan joylarning qizib ketishi va ulardan uchqun chiqishi, bug' qozonlarining portlashi;) qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yoki yonilg'ining o'z-o'zidan yonib ketishiga sabab bo'ladi.

Yong'inning oldini olish tadbirlari: tashkiliy (ko'ngilli o't o'chiruvchi navbatchilik yoki yong'indan muhofazalash navbatchilar guruhini tuzish, omma orasida tushuntirish ishlarini olib borish).

Texnikaviy tadbirlarga quyidagilar kiradi: yong'in yoki portlash jihatidan xavfli xonalarga alohida konstruksiyali elektr jihozlar o'rnatish, nosoz pechlar, mashinalar, elektr jihozlardan, shuningdek, oson alanganadan suyuqliklar saqlanadigan yoki ishlatiladigan joylarda olovdan foydalanishni taqilab qo'yish, yashin qaytargich o'rnatish, chiqqan yong'inning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish (obyektlarni o'tga chidamli materiallardan qurish, binolar orasidagi yong'inga qarshi oraliqlarga rioya

qilish), yonayotgan binolardan, hayvonlar va qimmatbaho xo‘jalik buyumlarini muvaffaqiyatli ravishda ko‘chirishga imkon beradigan choralar ni ko‘rish (kerakli miqdorda eshiklar, zarar kenglikda karidor (yo‘lak) lar qurish, ularni to‘sib qo‘yishni man etish), yong‘inni o‘chirishni yengillashtiradigan tadbirlarni ko‘rish (yong‘inni o‘chirish narvonlari, yong‘inni kuzatish mumkin bo‘lgan balandliklar, suv havzalari va binolarga kelish yo‘llarini qurish, yong‘in aloqasi hamda xabarlagichlar o‘rnatish).

O‘t o‘chirish vositalari

Yong‘inni o‘chirish yo‘llari va o‘t o‘chirich moddalarning xususiyatlariga mos ravishda yong‘inni o‘chirish vositalari tanlab olinadi. Ular asosiy, maxsus va yordamchi vositalarga bo‘linadi.


Asosiy vositalar - yong‘inga o‘t o‘chirish vositalarini (suv, ko‘pik, kukun, karbonad angidrid gazi va boshq.) sepish uchun belgilangan. Bularga avtomobil avtotsisterna, motopompa, o‘t o‘chirichichlar va boshqalar kiradi.

Maxsus vositalar - yong‘inni o‘chirishda maxsus ishlarni bajarish uchun ishlatiladi. Ularga avtonarvonlar va tirsakli ko‘targichlar, yoritish va aloqa avtomobillari, shuningdek tezkor avtomobillar kiradi.

Yordamchi vositalar - yong‘inni o‘chirish ishlarini bajarish uchun yetarli sharoit yaratadi. Bularga avtosuv quygichlar, yuk avtomobillari, avtobuslar, traktor va boshqa mashinalar kiradi.


O‘t o‘chirichichlar – yong‘in boshlanish vaqtida o‘chirish uchun qo‘llaniladi. Ular turli hajmdagi o‘t o‘chiruvchi moddalar bilan to‘lg‘iziladi. O‘t o‘chiruvchi moddalarning tarkibiga qarab o‘t o‘chirichichlar ko‘pikli, gazsimon, suyuq, kukunsimon guruhlarga bo‘linadi.

Ko‘pikli o‘t o‘chirichichlar - ular ko‘pikli va mexanik havo turlariga bo‘linadi. Kimyoviy ko‘pikli o‘t o‘chirichich OXP – 10 yona boshlagan qattiq materiallarni, maydoni 1 m² dan ortiq bo‘lmagan turli yonuvchi suyuqliklarni o‘chirish uchun qo‘llaniladi; 4-rasm, 5-rasm va 6-rasm.



Karbanat angidrid gazli o‘t o‘chirichichlarda (OU-2, OU-5, OU-8 qo‘l va OU-25, OU-80 aravachaga o‘rnatilgan ko‘chma) karbanat angidrid (SO₂) o‘t o‘chirich zaradi hisoblanadi. Ularning tuzilishi bir-biriga o‘xshash. Belgidagi son qiymati idishning hajmini litrda ifodalanishini ko‘rsatadi. O‘t o‘chirichichlar gaz bilan to‘ldirilgan bo‘lib, to‘k o‘tkazmaydi. Shuning uchun ular to‘k ostida bo‘lgan elektr qurilmalarni va katta bo‘lmagan yong‘inni o‘chirish uchun mo‘ljallangan.

Karbonat angidridli o‘t o‘chirgich



1-saqlagichli membrana plombasi; 2-zarad plombasi; 3-maxovik; 4-ventil – tomba; 5-ushlagich; 6-kronshteyn tombasi bilan; 7-qor hosil qilib beruvchi voronkasimon nay; 8-ballon; 9-yorug‘lik joyi;

Jarohatlanganlarga dastlabki yordam ko‘rsatish

Hozirgi mashina va avtomobillar korxona ma’muriyati dori-darmonlar to‘plami bor tibbiyot aptechkasi bilan ta’minlashi zarur. Aptechkada quydagilar bo‘lishi lozim: ichimlik sodasi – 200 g, validol – 30 tabletka, bort kislotasi – 60g, leykoplastir – (1x15 sm) – 5 dona, vazelin – 50 g, rezina naycha – 1 dona, shaxsiy paket – 10 dona, bint – 10 dona, novshadil spirti – 20 g, paxta – 100 g, shinalar – komplekt, yod eritmasi.

Aptechkadagi tibbiy preparatlar quydagi maqsatlarda ishlatiladi: ichimlik sodasi – kislota kuydirganda (ishqor va kislotalar bilan ishlashda) ko‘zni yuvish va og‘izni chayish maqsadida ichimlik sodaning 2-4% li eritmasini tayyorlash uchun; validol – asab sistemasini tinchlantirish va yurak atrofidagi og‘riqlarni yo‘qotish, bora kislota ishqori ta’sirida kuyganda ko‘zni yuvish va og‘izni chayish maqsadida 2-4% li eritmsi tayyorlanadi. Vazelin – 1 darajali kuyishda, tiralganda, teri yallig‘langanda, teriga surtishga; rezina bog‘lam qon ketishini to‘xtatishga; shaxsiy paketlar, bintlar, paxta – lat yeganda, yaralanganda bog‘lab quyishga; spirt – xushdan ketganda hidlatib hushiga keltirishda; yod eritmasi jarohat atrofiga surishda (teridagi shilingan, tiralgan joylarga) ishlatiladi.

Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishning umumiy qoidalari


Jarohatlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatishdan oldin quydagi ishlarni bajarish lozim:

- jarohatlanish omillarini yo‘qotish (masalan, jarohatlanuvchini xavfli joydan olib chiqish); elektr simidan ajratib olish (elektr to‘ki organida; jarohatlanuvchining ahvolini yomonlashtiruvchi barcha narsalardan qo‘tqarish) jarohatlanuvchi ustidagi yukni, devor parchalarini olish, xonadan yoki yonayotgan joydan olib chiqish kerak;
- agar bemorga xavf tug‘ilmaydigan bo‘lsa, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda uni qo‘zg‘atmaslik kerak;
- hushidan ketganda xushiga keltirish va tashlab ketmaslik kerak;
- birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish uchun jarohatlanganning kiyimini yechish yoki yaralangan joyidagi kiyimini qirqishda juda ehtiyoj bo‘lish zarur;
- jarohatini avaylash;


Tanuning biror joyi shikastlangan yoki suyagi ochiq singan bo‘lsa arteriyadan yoki venadan qon ketishi mumkin. Arteriyadan oqadigan qon och qizil rangli bo‘ladi va u kuchli bosim ostida beto‘xtov oqadi. Venadan oqadigan qon to‘q qizil rangli bo‘ladi va u jarohatdan otilib chiqadi. Tomchilab qon ketishda qon tomib – tomib turadi va qon ozroq miqdorda sekin chiqadi.

Yirik arteriyalar jarohatlanganda tezlik bilan birinchi yordam ko‘rsatish zarur. Birinchi navbatda tomirni barmoqlar bilan qattiq bosib, suyakka siqish orqali qon ketishini to‘xtatish lozim.

Qon ketishini suyakga qon tomirlarini siqish orqali to‘xtatish ham mumkin. Oyoq qo‘llardan qon oqqanda rezina bog‘lam yoki tasma, gazlama parchasi, ro‘molga yoki boshqa narsalardan foydalanim burama bog‘lam usulida qon to‘xtatiladi.



Qon ketishini suyakga qon tomirini siqish orqali to‘xtashi



Burama bog‘lam usulida qon ketishini to‘xtatish

Burama bog‘lam usulida quyidagi ishlarni bajarish lozim;

- teriga bir necha qatlam qilib taxlangan toza bint, gazlama parchasi yoki ro‘molcha qo‘yilib; jarohat bo‘sh boylanib, qon to‘xtaguncha tayaoqcha yoki ruchka bilan buraladi;
- bog‘lam ostiga jarohat qachon bog‘langan vaqtি aniq yozilgan (masalan, 05 soat 35 min.) qog‘oz qo‘yilishi shart, chunki shifokorni yordam ko‘rsatishiga qayta yordam beradi.

Vena va kapilyar qon oqishni to‘xtatishda bosib turadigan bog‘lam qo‘yishning o‘zi kifoya. Jarohat atrofiga yod suriladi va ustidan sterillangan bint parchasi yoki toza ip – gazlama qo‘yilib bint bilan mahkam bog‘lanadi.

Zaharlanganda birinchi yordam

Zaharlanish odam organizmida uzoq vaqt mobaynida zaharli changlar, suyuqlik va gazlarning ta’siridan kelib chiqadi. Buning natijasida hid sezish va his etish organlarini ishdan chiqaradi. shuningdek, umumiy holsizlanish paydo bo‘ladi. Zaharlangandagi birinchi belgi bosh og‘rishi, ko‘ngil aynishi, quloqda shovqin paydo bo‘ladi, bosh aylanadi va yurak urishi tezlashadi. Zaharlangan odamning zaharlangan muhitda bo‘lishining davom etishi uni yanada holsizlantiradi, uyquga tortadi, hushidan ketkazadi va nafas olish markazining falajlanishidan o‘lim yuzaga keladi.

Zaharlanganda birinchi navbatda nafas olish yo‘li, teri, oshqozon – ichak traktidan zaharli moddalarning o‘tishi to‘xtatiladi. Zararli modda teriga tushishi bilan suvda yuvib tashlansin. Agar zahar oshqozon – ichak trakti orqali organizmga o‘tsa, bir necha stakan iliq suv yoki kuchsiz kaliy permanganat aralashmasi ichirilib, qayt qilishi bir necha marta qaytariladi, ya’ni ko‘ngil aynashi to‘xtatiladi. So‘ngra

yarim stakan suvga ikki – uch qoshiq aktivlashtirilgan ko‘mir aralashmasini va ichni bo‘shashtiradigan dorilar ichiriladi.

Teri kuyushi va unga birinchi yordam berish

Kuyish - teriga yuqori haroratlar ta’sirida (termik) shuningdek kislota, ishqor, fosfor va boshqalarni (kimyoviy) ta’siri natijasida sodir bo‘ladi. Kuyish holatiga qarab to‘rt darajaga bo‘lish mumkin. Birinchi darajali kuyganda terida qizarib shishi seziladi; ikkinchi darajali kuyishda suyuqlikka to‘lgan pufakchalar hosil bo‘ladi; uchinchi darajali kuyishda teri kuyib tirishadi va jonsizlanadi, to‘rtinchi darajali kuyishda teri kuyib ko‘mirga aylanib inson hayoti to‘xtaydi.

Birinchi darajali kuyishda kuygan joylari toza suvda yuviladi, undan keyin spirt, odekolon yoki kaliy permaganatning kuchsiz aralashmasi bilan xo‘llanadi.

Ikkinci darajali kuyishda terining kuygan qismlarida paydo bo‘lgan pufakchalar ko‘chirilmasdan sterillangan bog‘ich quyiladi. Kiyim va oyoq kiyimlarni yechganda teriga tegib ketmasligi va yara ifloslanmasligi lozim. Konsentrangan kislotalardan kuyganda (sulfat kislotadan tashqari) terining kuygan yuzasi 15 – 20 minut davomida sovuq suv, sovunli suv va ichimlik (3% li) soda aralashmasi bilan yuviladi. Ishqordan kuygan teri suv bilan yuviladi, so‘ng 2 % li sirka yoki limon kislota aralashmasi bilan tozalanadi. Ishlov berilgandan keyin terining kuygan yuzasiga zararsizlantirilgan bog‘ich qo‘yiladi. So‘ndirilmagan ohakdan kuygan teri qismlariga hayvon yoki o‘simplik yog‘lari bilan tozalanadi.

Qismlarga ajratish-yig‘ish ishlarini bajarganda

xavfsizlik qoidalari.

Umumiy qoidalar. Avtomobil yig‘ma birliklarini qismlarga ajratish va yig‘ish uchun ularni turg‘un holatini ta’minlovchi maxsus stend, aravacha yoki moslamalardan foydalanish lozim. Bu ish unumini oshirib, xavfsiz ishlashni ta’minlab va qulaylik yaratibgina qolmay balki ish sifatini ham oshiradi.

Ko‘tarish-tushirish jihozlari yaroqli, ishslashga qulay va xavfsiz bo‘lishi lozim. Og‘ir vaznli agregat va detallarni olishda maxsus qamragich (strop) ishlatilib kamida to‘rt joyidan ilinib mahkamlanishi kerak. Agregat aylanib ketishga yo‘l qo‘ymasdan ko‘tariladi. Agregat yoki mexanizm ko‘tarilgan holatda qismlarga ajratish yoki yig‘ish man etiladi. Ilgak, zanjir, qamragich va yuk ko‘tarish kamida bir yilda ikki marta tekshirilib, sinab ko‘riladi. Yukni ko‘tarishda og‘irlik markazi hisobga olinmasa aylanib ketishi yoki surilishiga sabab bo‘ladi va xavfli vaziyatni yuzaga keltiradi.

Yukni sekinlik bilan ko‘tarib uni turgan joyidan ajratish paytida ehtiyyot bo‘lish maqsadga muvofiq, aynan shu holatda o‘girilib yoki surilib ketishi mumkin. Agregat yoki qismlarni ajratish va yig‘ish ishlarida yaroqli asbob–uskunalarini ishlatish xavfsiz ishslashning eng muhim shartidir. O‘lchami to‘g‘ri kelmaydigan kalitlar bilan bolt yoki gaykani burab bo‘shatish, kalitni boshqa kalit yoki truba bilan uzaytirib tortish mumkin emas, bu shikastlanishga olib keladi. Burab chiqarib bo‘lmaydigan holatlarda gaykani kesib olish va gaz alangasidan foydalanish mumkin. Qo‘zg‘almas birikmalar vtulka, podshipnik halqa va boshqa detallar maxsus moslama va press yordamida chiqarib olinadi yoki o‘rnataladi. Har bir asbob–uskuna foydalanishda o‘z vazifasi bo‘yicha qo‘llanish shart! Prujina yoki siqilib turuvchi detalni bo‘shatish vaqtida chiqib ketishdan saqlovchi moslama yoki himoyalovchi vositadan foydalanish kerak. Detal yoki agregatlarni yuvish va tozalash ishlarini bajarishda yuvish uskunalaridan to‘g‘ri foydalanish zarur. Siqilgan havo bilan tozalashda himoya ko‘zoynagi taqib olinadi va havo oqimini o‘ziga qarama-qarshi tomonga yo‘naltiriladi. Uchli va kesib ketish ehtimoli bo‘lgan detallarni qo‘lqop bilan mahkam ushlab, sirpanib ketishga yo‘l qo‘ymasdan olish kerak. Moy, suyuqlik va loyli yuzalarni tozalab, artib quruq holda ishslashga ruxsat etiladi. Ish joyida moy va suyuqliklarning yerga to‘kilishi-yiqilish va jarohatlanishga sabab bo‘ladi.

Asbob–uskunalarini o‘z joyiga tartib bilan qo‘yish, ish joyini toza tutish, oyoq kiyimni oyoqda mustahkam turishi va ishchi kiyimni loyiq hamda qulay bo‘lishi, ish joyini to‘g‘ri tashkil qilinishi-xavfsiz

ishlashning zaruriy talablaridan biridir. Har bir ish bajarilishining o‘ziga xos texnika xavfsizligi bo‘lib, ularni bajarishdan avval barcha o‘quv amaliyotida yo‘riqnomalar asosida tushuntiriladi hamda muhandis-pedagog amalda ko‘rsatishi maqsadga muvofiqdir.

Chilangarlik o‘quv ustaxonalarida olib boriladigan amaliy mashg’ulotlar talabalarning nazariy va umumtexnikaviy tayyorgarliklari asosida, konstruksion materiallar texnologiyasi, chizmachilik va maktab mehnat ta’limi dasturlariga bog’langan holda, ularning maktab o‘quv ustaxonalarida metall ishslash darslarida hosil qilgan boshlang’ich ko‘nikma va malakalari asosida tashkil etiladi.

Amaliy mashg’ulotlarda ishlarni bajarishni o‘rgatish jarayonida talabalarga mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy yo‘l-yo‘riqlarini o‘rgata borib, ularni qat’iy ish chizmalari va texnologik kartalar asosida, sirlarning tozaligi va anihlik klassiga amal qilgan holda ishslashga o‘rgatiladi.

Talabalarga topshiriladigan ishlar sharoitni hisobga olgan holda dastur asosida tanlanadi va tavsiya etiladi.

Talabalarga Chilangarlik ishlarini o‘rgatishda metall materiallardan tejab-tergab, asbob va moslamalardan to’g’ri va unumli foydalangan holda ishni rasional tashkil eta olishlarini ta’minalash maqsadida, ularning o’rta umumta’lim maktablarida hosil qilingan o‘quv, ko‘nikma va malakalari asosida, o‘qitish va o‘rgatishning didaktik prinsipiiga amal qilgan holda oddiydan murakkabga, bir detalli buyumlardan ko‘p detalli murakkab kompleks ishlarga o’tib boriladi. Har bir asbob yoki moslama yordamyda bajariladigan dastlabki o‘rganish mashqlarini instruksion kartalar asosida tashkil etib, bunda ishlarni bajarishda foydalaniadigan asbob-uskunalarining turlari, tuzilishi, ishga sozlash, ish vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtirilib, ular yordamida ishslashni mashq qildirishga o’tib boriladi.

Masalan, birinchi mashg’ulotda: Chilangarlik o‘quv ustaxonasida bajariladigan ishlar va uni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad, Chilangarlik kasbi haqida, ustaxonada rioya qilinadigan umumiyy tartib, xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalari, o‘quv ustaxonasining jihozlari, Chilangarlik ish o’rni va uni tashkil etish to’g’risida umumiyy tushunchalar beriladi, xavfsizlik texnikasi jurnaliga qo’l qo’ydiriladi.

Ikkinci mashg’ulotda tayyorlanadigan detal va buyumlarning aniq o‘lchamli va sifatl bo’lishini ta’minalashga yordam beradigan Chilangarlik nazorat-o’lchov va rejlash asboblarining turlari, tuzilishi, ishlatilishi, o‘lchash va rejlash vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi qoidalari haqida tushuncha berilib, o‘lchash va rejlashni mashq qildirishga o’tiladi. Bunda keyinchalik qiyish, qirqish, arralash ‘yo’li bilan kesib olinadigan detal va buyumlarga mos materiallar rejalanadi.

Uchinchi mashg’ulotda Chilangarlik qaychisi, uning turlari, tuzilishi, ishga sozlash, qiyish usullari va qiyish vaqtida o‘rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtirilib, qiyishni mashq qildirishga o’tiladi. Bunda har xil o‘lchamdagagi tunuka qutichalar, chelaklar, kurakcha, kalorimetrik, spirtovka kabilarga mos material qiyiladi.,

To’rtinchi mashg’ulotda Chilangarlik dastarrasi tuzilishi, ishga sozlash, arralash usullari, arralash vaqtida rioya qilinadigan xavfsiz texnikasi qoidalari haqida tushuncha berilib, bu narsalar amalda ko‘rsatiladi va arralashni mashq qildirishga o’tiladi.

Arralash mashqida keyinchalik bajariladigan ishlar uchun material tayyorlanadi.

Beshinchi mashg’ulotda qirqish va tarashlash ishlari o‘rgatilib, bunda zubilo va larning tuzilishi, ishga sozlash, o’tkirlik burchaklari, qirqish usullari, qirqish vaqtida rioyaqilinadigan xavfsizlik texnikasi qoidalari, bilan tanishtiriladi va qirqishni mashq qildirishga o’tiladi.

Oltinchi mashg’ulotda egovlash mashq qildirilib, bunda oldindan qiyish, qirqish, arralash yo’li bilan tayyorlangan detal va buyumga mos materiallarning chet (zeh)lari egovlab tekislash, sillihlash

yo'li bilan aniq o'lchamga keltiriladi. Bu maqsadda egovlarning turlari, tuzilishi, egovlarni ishlatish ketma-ketligi, zgovlash usullari va bu vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtirilib, egovlashni mashq qildiriladi.

So'nggi mashg'ulotlarda parmalash, parchinlash, rezba qirqish, kavsharlash yo'li bilan qismlarni biriktirish va buyumlarni yig'ish, pardozlash kabi operatsiyalarni mashq qildirish bilan Chilangarlikda qo'llaniladigan ishlar ketma-ketligi o'rgatib boriladi. Bu hol talabalarning buyum tayyorlashdagi ishlar ketma-ketligini to'g'ri tanlashga, mustaqil ish yurita olishlarini ta'minlashga yordam beradi.

Shu tariqa, dastlabki mashg'ulotlarni instruksion kartalar asosida tashkil etib, etarli ko'nikma va mehnat malakalari hosil qilinganidan so'ng talabalarni asbob-uskunalaridan erkin foydalangan holda ishni mustaqil ravishda bajarish chizmalarni o'qiy olish, turli xil konstruksiyalar bilan tanishtirish maqsadida bir necha operatsiyani o'z ichiga oladigan sodda buyum yoki detal tayyorlatishga o'tiladi. Buning uchun, detal yoki buyum tayyorlashda foydalilaniladigan texnikaviy hujjatlardan biri texnologik karta haqida tushuncha beriladi va sodda, kam operatsiyali ishlardan ko'p operatsiyali murakkab ishlarga o'tib boriladi.

Detal va buyum tayyorlashda vaqt normasiga amal qilinadi. Biroq talabalar Chilangarlikda qo'llaniladigan ayrim operatsiyalar bilan tanishib, bu borada etarli malaka hosil qilmagunlariga qadar dastlabki mashg'ulotlarda ishlarni bajarishda shoshilmaslik kerak, chunki bo'lg'usi mehnat o'qituvchisi ishni bajarishnigina o'r ganib qolmasdan, balki ishlarni, mehnatni ilmiy ravishda tashkil etgan holda, ortiqcha, kuch sarflamasdan, qulay usullar bilan bajarish yo'l-yo'riqlarini o'r ganishi va izlashi zarur. Bu hol ularga topshirilgan ishlarni bajarishda foydalilaniladigan instruksion va texnologik kartalarning to'g'ri tuzilganligini tekshira olishiga, undagi xato va kamcqiliklarni topa bilishlariga, o'z fikr mulohazalarini o'rtoqlashishga o'rgatadi. Bu esa o'z navbatida ularning rasionalizatorlik qobiliyatlarining shakllanishiga, va o'sishiga yordam beradi.

Talabalarning instruksion va texnologik kartalardan foydalangan holda ishlarni mustaqil ravishda bajarish o'quvlar shakllantirilib, etarli darajada mehnat malakalari hosil qilinganidan so'ng ko'p detalli yoki murakkab buyumlarni ish chizmalari asosida tayyorlatishga o'tiladi.

Masalan, boshlang'ich mashg'ulotlarda qiyish, qirqish, arralash ishlari o'rgatilib, keyinchalik tayyorlanadigan buyum yoki detal uchun zagotovka tayyorlanadi. So'nggi mashg'ulotlarda, ularni egovlash yo'li bilan chizmadagi shakl va o'lchamga keltiriladi. Talab etilishiga qarab parmalanadi, parchinlab yoki rezba yordamida biriktiriladi.

Shu tariqa osondan-qiyinga, oddiydan-murakkabga, bir detalli sodda buyumlardan ko'p detalli murakkab buyumlar tayyorlatishga o'tib borish yo'li bilan Chilangarlikda qo'llaniladigan barcha asbob-uskunalar bilan tanishtirilib, ular yordamida bajariladigan ishlar o'rgatib boriladi.
.:

Talabalarning mehnatga ijodiy yondashishlari, mehnat madaniyati va konstruktorlik qobiliyatini o'stirish maqsadida detal yoki buyum konstruksiyasiga o'zgartirish kiritish, yangi texnologik kartalar tuzish, konstruksiyalarni loyig' alash kabi ishlarni ham topshiriladi.

Chilangarlik ustaxonasida olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar turli ko'rinishlarda tashkil etiladi. Masalan, talabalarning o'quv va mehnat malakalariga qarab mashg'ulotlarni frontal tarzda, guruhlarga bo'lingan holda, shuningdek individual tarzda tashkil etish mumkin.

Albatta, pedagogika institutlari o'quv ustaxonalarida olib boriladigan mashg'ulotlar talabalarning o'rta umumta'lim maktablarida hosil qilgan dastlabki ko'nikma va malakalari

asosida tashkil etiladi. Yozuvchi M. Gorkiyning "Takrorlash - o'qishning onasidir" degan dono fikriga amal qilib, o'rta maktabda o'rgatilgan Chilangarlik operatsiyalarini takrorlash, mustahkam mehnat malakalari hosil qilish bilan yangi ish turlariga o'tib boriladi.

O'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan dastlabki mashg'ulotlarni, ya'ni ayrim operatsiyalarni frontal tarzda tashkil etish, maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotlarni bu ko'rinishda tashkil etganda guruhdag'i barcha talabalarga bir turdag'i ish topshiriladi, bu ishni bajarish yo'l-yo'riqlari to'g'risida umumiy tushuncha beriladi. Bunda ishni bajarish tartibi, foydalaniladigan asbob-uskunalar, ish vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi qoidalari instruktaj tariqasida tushuntiriladi va amalda ko'rsatib boriladi. Ishni bajarish tartibi tushuntirilishidan qat'i nazar, har bir ish o'rnida shu ishga oid instruksion yoki texnologik kartalar, ish chizmalar bo'lishi zarur. Bu hol talabalarning ishni ko'rsatilgan tartibda, belgilangan vaqt ichida tez va sifatli bajarishlariga, asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanishiga, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni hujjatlarga, o'rtoqlarining ishiga qarab tuzatishlariga, bajarayotgan ish turlarini puxta o'rganishlariga yordam beradi. Ishni shu taxlitda tashkil etganda o'qituvchi yoki usta talabalarning bajarayotgan ishlarini kuzatish, yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tuzatish, asboblardan to'g'ri foydalanish usullarini va ishga sozlashni o'rgatish imkoniga ega bo'ladi.

Talabalarning o'quv va mehnat malakalari har xil bo'lganligi sababli ular topshirilgan ishlarni turli muddatda, oldinma-keyin bajaradilar. Shunga qaramasdan, navbatdagi ishlarnikg frontal tarzda tashkil etilishini ta'minlash maqsadida bu ishlar yuzasidan umumiy tushuntirish berib borilaveradi.

SHu tarzda ayrim operatsiyalarni instruksion kartalar asosida bajarish borasida talabalarning etarli bilim, o'quv va mehnat malakalari hosil qilinib, topshirihlarni mustaqil ravishda bajara olish o'quvlar shakllantirilgandan so'ng bir necha operatsiyani o'z ichiga oladigan sodda buyum va detallarni texnologik karta asosida bajarishga o'tiladi.

Texnologik karta asosida bajariladgan ishlar tayyorlanadigan buyum xarakteriga, o'quv-material bazasiga qarab frontal tarzda, shuningdek individual tarzda topshirilishi mumkin. Individual topshiriladigan ishlar, ko'pincha turli xarakterda bo'ladi. Shuning uchun bu xildagi ishlarni talabalarning dastlabki ko'nikma va malakalariga tayanib, texnologik karta yoki ish chizmalar asosida mustaqil ravishda bajarishga topshirish mumkin.

Ayrim ko'p detalli murakkab ishlarni topshirishda, guruh usulidan ham foydalaniladi. Bunda ishning xarakteriga qarab guruh ikkitadan, uchtadan, to'rttadan va h. k. talabalardan tashkil topgan guruhlarga bo'linishi, har bir guruh bir-biridan farq qiladigan yoki bir turdag'i ishlarni bajarishi mumkin.

Guruhrlar bir turdag'i ishlarni bajarganda uni bajarish yuzasidan umumiy tarzdagi instruktaj berilishidan qat'i nazar, guruh a'zolari bir-biridan farq qiladigan ishlarni bajaradilar.

Guruhrarga topshiriladigan ishlar bir-biridan farq qiladigan hollarda o'qituvchi yoki usta tomonidan har bir ishga doir tushuntirish berilmaydi. Topshirih guruh a'zolari o'rtasida taqsimlanadi va ish chizmalar asosida mustaqil ravishda yakka tartibda bajariladi, ishga guruh boshlig'hi rahbarlik qiladi.

Amaliy mashg'ulot qanday ko'rinishda tashkil etilmasin, o'qituvchi yoki usta bajarilayotgan ishlarni kuzatib boradi, kamcqiliklarni tuzatadi, yo'l-yo'riqlar berib turadi.

Talabalarning texnikaviy hujjatlardan foydalangan holda mustaqil ishlashlarini ta'minlash maqsadida operatsiyalarga doir instruksion kartalar, detal yoki buyum tayyorlashga doir texnologik karta va ish chizmalar fotokopiya qilish usuli bilan ko'paytirilib, har bir ish o'rniga yoki guruhga alohida-alohida tarqatiladi. Yangi tur ish topshirishda o'qituvchi yoki usta mashg'ulotgacha unga tegishli bo'lган texnikaviy hujjatva materiallarni taqsimlab tarqatib chiqadi.

O'quv ustaxonalarida olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarda materialdan tejab-tergab foydalanishga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun tayyorlanadigan detal yoki buyumga mos material tanlashni, ishlarni bazalarga asosan tashkil etishni, rejalashda rejalash asboblari va andazalardan foydalanishni, materialning turi va o'lchamiga qarab keskich asboblarni to'g'ri tanlash va ishlata bilishni, tayyorlangan detallarni tekshirishda nazorat-o'lchov asboblaridan foydalanishga o'rgatish zarur.

Izoh: Ta'lim texnologiyasi bilan Mavzular to'plami namuna sifatida faqat bir ta mavzu ko'rinishida keltirilgan. O'quv'amaliyotining dasturi asosida barcha mavzular xuddi shunday tayyorlanishi lozim.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH VA MUVOFIQLASHTIRISH
BUXORO VILOYAT HUDUDIY BOSHQARMASI

BUXORO SHAHAR KASB-HUNAR MAKTABI



CHILANGARLIK ISHI O'QUV AMALIYOTIDAN

BAHOLASH MEZONLARI

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi:

S.Abdullayev

2021-yil

O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv moduli davomida o‘tkazilgan mavzular bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi. Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

Baholash tizimi:

Joriy baholash mezonlari

A’lo bahoga:

- bajargan ishining nazariy va amaliy ahamiyatini, maqsadi va vazifasini atroflicha tushungan bo’lsa;
- vazifani mustaqil ijodiy yondashib bajara olsa;
- chizgan xaritalarining mazmunini tushunsa, to’g’ri bayon qilib bersa;
- voqeа-hodisalar tafsilotlarini, chegaralarini buzmay to’g’ri tasvirlasa;
- ishni belgilangan muddatda va puxta tayyorlab topshirsa.

Yaxshi bahoga:

- bajargan ishining nazariy va amaliy ahamiyatini. maqsadi va vazifasini tushungan bulsa;
- vazifani mustaqil bajara olsa;
- chizgan xaritalarining mazmunshsh tushunsa, to’g’ri bayon qilib bersa;
- voqeа-hodisalar tafsilotlarini, chegaralarini buzmay to’g’ri tasvirlasa;
- ishni belgilangan muddatda topshirsa.

Qoniqarli bahoga:

- bajargan ishining nazariy va amaliy ahamiyatini, maqsadi va vazifasi haqida umumiy tasavvurga ega bo’lsa;
- vazifani mustaqil bajara olmay, ayrim yordamga muhtoj bo’lsa;
- xaritalarni mazmunan to’g’ri chizgan va tushungan, ammo bayonida qiynalsa;
- voqeа-hodisalar tafsilotlarini, chegaralarini buzib tasvirlasa;
- ishda ayrim kamchiliklar bo’lsa va belgilangan muddatda topshirilmasa.

Qoniqarsiz bahoga:

- ishni bajarmagan yoki nazariy va amaliy ahamiyatini tushunmagan bo’lsa;
- vazifani mustaqil bajara olmasa;
- hisobotni chala va o’z vaqtida topshirmasa yoki umuman topshirmasa.

Baholash mezoni

Guruhsda ishlashni baholash jadvali

Guruh	Javobning aniqligi va to'liqligi (2-5 ball)	Taqdim etilgan axborot yaqqolligi (2-5 ball)	Guruhsning har bir a'zosi faolligi (2-5 ball)	Umumiy ball miqdori (2+3+4)	Baho (5/4)
1	2	3	4	5	6
1					
2					

Har bir guruh mezonlar bo'yicha ballarni jamlab, boshqa guruhlar chiqishini baholaydi. Guruh olgan baho guruhsning har bir a'zosi bahosini belgilab beradi: 5 ball - «a'lo»; 4 - «yaxshi»; 3 - «qoniqarli»; 2 ball - «qoniqarsiz».

Dars yakuni O'qituvchi o'tgan yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarining tushunmagan savollarga javob beradi, darsni mustahkamlashdagi o'quvchilar javobini muhokama qilib, o'quvchilar bilimini baholaydi va darsni yakunlaydi.

Darsga faol ishtirok etgan o'quvchilarini o'qituvchi baholaydi

O`quvchilar faoliyatini baholash mezonlari	
86-100 %	5 baho “a'lo”
71 - 85%	4 baho “yaxshi”
55 – 70%	3 baho «qoniqarli»